

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOT
UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI

**“Himoyaga ruxsat etilsin”
Fakultet dekani
f.f.d. B.Abdushukurov**

“---” -----2018 y

**5111200-“O‘zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta’lim yo‘nalishi IV kurs
402-guruh talabasi Nosiraliyeva Sirojiya A‘zamjon qizining «Xalq
dostonlarini o‘rgatish metodlari» mavzusida yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ R.Niyozmetova
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish
metodikasi” kafedrası professori., ped.f.d.

Taqrizchilar:

_____ T.Matyoqubova
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish
metodikasi” kafedrası dotsenti.

_____ Sh. Toshmirzayeva
XTVTFFI davlat umumta’lim
maktabi o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish
metodikasi” kafedrası mudiri
f.f.d. _____ Z.Mirzayeva
2018yil “___”- _____

TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

BMI ning umumiy tavsifi	3
I bob. O‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	3
1.1. Ta’lim bosqichlarida xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganishning o‘ziga xosligi.....	8
1.2. Xalq dostonlari va ularni tahlil qilish usullari.....	21
II bob. Adabiyot darslarida xalq dostonlarini o‘rganishda samarali metod va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	33
2.1. Adabiyot darslarida “Alpomish” dostonining ma’rifiy va madaniy ahamiyatini o‘quvchilarga o‘rgatish usullari.....	33
2.2. Ta’lim bosqichlarida xalq dostonlarini o‘rganishda samarali metodlardan foydalanish.....	47
2.3. Innovatsion texnologiyalar va ularni amaliyotga tatbiq etish usullari...53	
III bob. BMI ning amaliyotga tatbiqi va tajriba-sinov ishlari natijalari.....	66
3.1. “Alpomish” mavzusi uchun dars ishlanmasi.....	66
3.2. “Ravshan” dostonini o‘rganish uchun tavsiya va tahlillar.....	73
Xulosa.....	81
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	83

BMI ning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Milliy qadriyatlar muayyan millatning asrlar osha yashab kelayotgan bebaho ma'naviy boyligi hisoblanadi. Ular jamiyat a'zolarini ruhan yaqinlashtirish, yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy hayotni barqarorlashtirish, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislik tuyg'usining bardavomligiga ta'sir ko'rsatishday beqiyos ahamiyatga ega. Shuning uchun ham qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodga ma'naviy-meros sifatida yetkazish masalasi bugungi kunda ham dolzarb muammo sanaladi. Ayniqsa, insonlar, mamlakatlar va qit'alar o'rtasidagi aloqa vositalari kuchayib borayotgan hozirgi globallashtirish jarayonida bu masala yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Kuchli axborot bosimi ostida o'zining milliy ma'naviy qiyofasini saqlab qolishga harakat qiladigan xalq yoki jamiyat o'z kelajagining bunyodkori – yosh avlod salohiyatini el-yurt uchun foydali ishlarga qaratishga intilishi tabiiy hol.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida yosh avlodni xilma-xil shakllardagi ma'naviy tajovuzlardan saqlash uchun buzg'unchi g'oyalarga qarshi bunyodkorlik, yaratuvchilik, insonparvarlik g'oyalari ila kurashish zarurki, bu borada milliy qadriyatlarga tayanish, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish ma'naviy qiyofamizni va o'zligimizni asrashga yordam beradi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin»¹ligi xalq og'zaki ijodi namunalari

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, «Ma'naviyat», 2008. -4-6.

tahlili orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish muammosining dolzarbligini belgilaydi.

Adabiy ta'lim boshqa ta'lim shakllaridan bunday imkoniyat doirasining kengligi bilan ajralib turadi. O'quvchi fikrlash orqali o'zi ko'rgan, idrok etgan, sezgan, tasavvur qilgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqatligi yuzasidan muayyan tushunchaga ega bo'ladi. Mulohaza yuritib, so'ng o'z munosabatini bayon qiladi. Ana shu fikrlash jarayonida o'quvchi o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakaga tayanib so'z yuritadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qib o'rganish va tahlil qilish jarayonida shunday ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, yanada takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Inson tafakkuri uning ruhiyati bilan chambarchas bog'liqlikda harakat qiladi. O'quvchi ruhiyati boy, dunyoqarashi keng, bilimi chuqur bo'lsa, fikrlari ham, mulohazalari ham asosli, mantiqli bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish va tahlil qilishdan ko'zlanuvchi metodik maqsadlardan eng muhimi o'quvchini mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga o'rgatish, ravon so'zlash, tafakkur shakllariga tayanib hayot hodisalari zamiridagi ma'nolarni anglab olishga o'rgatish, kulgu yo o'and-nasihatlar ortiga yashiringan haqiqatlar mohiyatini tushunib, xulosa chiqarishga yo'llashdir.

Bolaning fikrlashi va ilm olishga intilishi o'zaro uzviy aloqadorlikdagi jarayondir. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish va tahlil qilish jarayonida xalq yaratgan qahramonlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvori, ruhiy olamga munosabat bildirishi o'quvchini fikrlashga yo'naltiradi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: *“Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim... Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”*¹ deb ta'kidlaydilar.

Xalq og'zaki ijodi asarlari tahlili ajdodlarimizning yosh avlodni barkamol kishilar qilib voyaga yetkazish borasidagi qadimiy va ilg'or an'analarini tiklash

¹ Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi “Xalq so'zi” // 2016 yil 8 dekabr

yoʻlidagi muhim bir qadamdir. Zero, «Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflı vazifa turgan bir paytda bu maʼnaviy qadriyatlarning ahamiyati ming karra ortdi. Nega deganda, har qanday ulugʻ maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib goʻzal hayot barpo etish, avvalo shu jamiyat aʼzolari boʻlgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodiga bogʻliqdir. Shu boisdan ham hozirgi kunda, xalqimiz, farzandlarimiz iqbolini oʻylab, qattiq bel bogʻlab mehnat qilayotgan maʼsuliyatli bir davrda mazkur tushunchalar yanada teran maʼno kasb etadi»².

Aslida avlod-ajdodlarimiz ham farzandlarni umumbashariy tuygʻular, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida folklor asarlarining yuksak maʼnaviy qudratidan samarali foydalanib kelishgan.

Xalq ogʻzaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilgʻor va hayotbaxsh anʼanalarni oʻzida mujassamlashtirgan maʼnaviyat sarchashmasidir. Ana shu maʼnaviy merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson maʼnaviy kamoloti bilan bogʻliq urf-odatlar, anʼanalar alohida oʻrin tutadi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi:

Xalq ogʻzak ijodini oʻrganish masalasi mustaqillikgacha boʻlgan davrda ham, istiqlol davri adabiyot oʻqitish metodikasi sohasida ham izchil tadqiq qilingan. Ularni zamonaviy usullar vositasida, innovatsion texnologiyalardan foydalanib oʻrganish masalalarini targʻib qilish, dars jarayoniga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalaladir.

Adabiyot oʻqitish metodikasida xalq ogʻzaki ijodini Q.Yoʻldoshev, B.Toʻxliyev, V.Qodirov, O.Madayev, G.Xolboyeva, D.Jumanazarova boshqa metodist-olimlar soʻz yuritganlar.

BMI ning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. BMI mavzusi Navoiy nomidagi ToshDOʻTAU Oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti "Oʻzbek adabiyotini oʻqitish metodikasi" kafedrasi 2016-2018 – yillarga rejalashtirilgan BMI mavzular bankida aks etgan.

² Karimov I.A. Istiqlol va maʼnaviyat.-T.: Oʻzbekiston, 1995. -127-128- b.

Tadqiqotning maqsadi: Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish mazmuni, metodi, vosita va usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- milliy pedagogikamizda, xususan, adabiy ta‘lim jarayonida ma‘naviy-axloqiy tarbiya muammolarining o‘rganilishiga oid hozirgacha mavjud ilmiy tadqiqotlar va metodik ishlarni o‘rganish, ularni bugungi kun talablari andozasida tanqidiy tahlil etish;

- umumiy o‘rta ta‘lim, akademik litseylar uchun yaratilgan DTS, dastur hamda darsliklaridagi xalq dostonlarining berilish darajasini o‘rganish, mavjud holatning aniq tavsifini berish;

- doston va uning tasniflari bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plash;

- dostonlarni tahlil qilish, qahramonlarini qiyosiy o‘rganish;

- dostonlarni o‘rganish uchun samarali natija beradigan metod, vosita va zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiqini tayyorlash;

- “Alpomish” va “Rashan” dostonlari materiallariga tayanib, o‘quvchilarni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalash;

- muammoga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, ularning natijalarini umumlashtirish;

- mavzu va muammo yechimiga bog‘liq bo‘lgan tavsiyalar tizimini ishlab chiqish;

- dars ishlanmalari va tahlillar ilova qilish.

Tadqiqotning obyekti: Umumta‘lim maktablarida va akademik litseylarda xalq og‘zaki ijodini innovatsion texnologiyalar vositasida o‘rganiladigan ishlar jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Umumta‘lim maktablarida xalq og‘zaki ijodini, xususan, xalq dostonlarini o‘rganishni tadqiq qilish.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning milliy g‘oya va milliy mafkura, barkamol avlod tarbiyasi bilan bog‘liq asarlaridagi nazariy qarashlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar

sohasidagi qarorlari va dasturiy hujjatlari tadqiqot uchun metodologik asos qilib olindi. Ishda qo'yilgan barcha muammolarni tadqiq etishda pedagogika va adabiy ta'lim metodikasi ilmining eng so'nggi yutuqlariga, ma'naviy-axloqiy tarbiya va xalq og'zaki ijodi muammolari bilan shug'ullangan metodist olimlarning ilmiy-nazariy mulohazalariga asoslanildi. Shuningdek, nazariy-mantiqiy tahlil, taqqoslash; suhbat, ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish; kuzatish; klaster, chuvalchang, yelpig'ich, hamkorlikda ishlash kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodini o'rganishga bag'ishlangan ma'lumotlar matni ustida olib boriladigan ishlarning mazmunini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi, ta'lim shakllari, vositalari, metod va usullari yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Ishning materiallari va tavsiyalaridan, dars ishlanmalaridan xalq og'zaki ijodini o'rganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI mavzusi Navoiy nomidagi ToshDO'TAU "O'zbek adabiyotni o'qitish metodikasi" kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Ushbu tadqiqot natijalari va materiallari malakaviy pedagogik amaliyot o'tagan Toshkent shahridagi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchilariga O'zbek adabiyoti fanidan dars mashg'ulotlari o'tish jarayonida amaliyotga joriylashtirilgan, ochiq dars o'tkazilgan (ochiq dars ishlanmasi ilova qilinadi).

Ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 86 sahifani tashkil etadi.

I bob. O‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari

1.1. Ta’lim bosqichlarida xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ma’naviyatning ma’no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, bu murakkab, serqirra tushunchaning nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama keng qamrovli fikr-xulosalar orqali tahlil etganlar. Umuman, I.A.Karimovning bu asaridagi fikr-mulohazalariga tayanib aytish mumkinki, bizgacha yetib kelgan ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar, muqaddas dinimiz, tarixdagi bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlar, kundalik hayotdagi oila va mahallaning roli, uning samarali ta’siri, keng qamrovli ta’lim-tarbiya tizimi, juda boy so‘z san’ati va badiiy adabiyot, ma’naviy tarbiyaga javobgarlik hissi va mas’uliyat bilan yondashish, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizning tarixiy xotirasi “ma’naviyat” tushunchasini shakllantiradigan, uning ma’no-mazmunini boyitadigan asosiy mezonlar va omillar sanaladi. I.A.Karimov ma’naviyat tushunchasining inson hayotida tutgan o‘rni haqida ham yaxlit va sermazmun yakuniy xulosa beradilar: “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonni uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”².

Davlatimizning «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida mustaqillik yillarida milliy ta’lim va tarbiyashunoslik ham shaklan, ham mazmunan yangilandi, ma’nan barkamol avlodni tarbiyalash maqsadi ustuvor ahamiyat kasb etdi. Professor Q. Yo‘ldoshev haqli ravishda ta’kidlaganidek, «Maktab adabiyoti ta’lim berish vositasi emas, balki tarbiyalash vositasidir. Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera

²Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, «Ma’naviyat», 2008. -19-6.

oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy ma'lumotlar tizimini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarni o'z tabiatiga singdira bilgan, sirdan qaraganda, nofaolday tuyuladigan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir... Badiiy adabiyot go'zal dunyo ichida go'zal ruhiy dunyo yaratishdir».¹

Olimlarning fikricha, adabiyot o'qitishning vazifasi har bir xalqni o'zigagina xos ma'naviy qadriyatlar majmuida idrok etish mumkin ekanligini o'quvchilarga singdirish hamdir. Zero, o'z ma'naviyatini qanday qadriyatlarga tayanib shakllantirishni bilmagan shaxs xaritasiz noma'lum yurtga sayohat qilgan kishiga o'xshaydiki, ko'zlagan manzilini aniq tasavvur eta olmay, uzoq sargardon bo'lish xavfi bor.

Professor S. Matchonov «Avlod-ajdodlarimiz asrlar mobaynida intilib kelgan ma'naviy-axloqiy barkamollik, avvalo, insonning o'z-o'zini anglashi bo'lib, ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini anglash esa boshqalarni anglash, demakki, dunyoni anglash, ... uning sir-asrorlarini tushunishning ildizini kishilik jamiyatining ilk davridan, xalq og'zaki ijodi namunalari ijrosidan izlamoq kerak»² - deydi.

Mamlakatimiz qo'lga kiritgan mustaqilligini mustahkamlashda va rivojlantirishda o'quvchi-yoshlarni har tomonlama kamol toptirish, ularda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda.

Mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab insoniy xislat va fazilatlar majmui bo'lgan komil inson g'oyasi asosini xalqimizning azaliy ezgu orzulari tashkil qiladi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib, yanada chuqur ma'no-mazmun kasb etdi. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil inson tarbiyasi haqidagi fikrlari jamiyatni

¹ Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O'qituvchi, 1996.-30 -34- b.

² Qahramonov Q. An'ana va zamonaviylik. T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. -20-21- b.

taraqqiy ettirishda inson omili muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodi namunalarini milliy qadriyatlarga bog‘lab o‘rgatish dolzarb o‘edagogik muammo ekanligi yoshlarda komil insonga xos sifatlarni shakllantirish va ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq jarayon ekanligida ko‘rinadi. Bu jarayonda:

- o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil qilish vositasida yoshlar qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirishga e‘tibor qaratiladi;

- xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi milliy qadriyatlar tahlili orqali yoshlar ma‘naviy dunyosini boyitish va yuksaltirishga erishish ko‘zda tutiladi. Zotan, ma‘naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir. Ma‘naviyat jamiyatning, millatning, shu bilan birga ayrim bir kishining ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir. Inson aqli, qo‘li bilan nimaniki yaratmasin, uning zamirida fikr, g‘oya, bilim, qobiliyat, iste‘dod, tajriba, mehnat malakasi sifatida shakllangan ma‘naviyat yotadi. Ma‘naviyat tushunchasi insonning ma‘naviy-axloqiy fazilatlari va kamolotini ifodalaydi;

- adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish orqali ularda chin insoniy fazilatlarni shakllantirish, yaratuvchi, fidoyi insonlarga xos xususiyatlar tarkib too‘tiriladi;

- milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar xotirasiga sadoqat, ular qoldirgan ma‘naviy merosni qadrlash, ardoqlash va asrab-avaylash tuyg‘ulari shakllantiriladi;

- ota-bobolarimizning donishmandlik bilan yo‘g‘rilgan falsafiy mazmundagi o‘and-nasihatlari mohiyati, ma‘no-mazmunini anglatish orqali o‘quvchi yoshlar ezgulik ruhida tarbiyalanadi;

- bugungi kunning ma‘naviy muammolarini hal etishda, taraqqiyotimizga to‘sqinlik qilayotgan illatlarni yo‘qotishda bu o‘gitlardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatiladi.

- O‘zbekiston o‘z istiqloliga erishganidan so‘ng jamiyat ma‘naviy hayoti sog‘lomlashtirilishi va rivojlantirilishi, inson omiliga jiddiy e‘tibor qaratilishi ham mazkur muammoning ta‘lim-tarbiyaviy jihatdan nechog‘li muhim ijtimoiy-siyosiy

va ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Ta'lim tizimida ham barcha o'qitish ashyolari, usul va vositalari aynan jamiyat taraqqiyotiga o'z kuch-qudrati, imkoniyatlari, bilimlari, ko'nikma-malakalarini safarbar etadigan insonlarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «Bu tizim Vataniga, xalqiga, millatiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, biror bir masalani ongli ravishda mas'uliyat bilan xal qiladigan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchan kadrlarni yetishtirishga xizmat qilishi kerak»¹.

Adabiy ta'lim boshqa ta'lim shakllaridan bunday imkoniyat doirasining kengligi bilan ajralib turadi. O'quvchi fikrlash orqali o'zi ko'rgan, idrok etgan, sezgan, tasavvur qilgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqatligi yuzasidan muayyan tushunchaga ega bo'ladi. Mulohaza yuritib, so'ng o'z munosabatini bayon qiladi. Ana shu fikrlash jarayonida o'quvchi o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakaga tayanib so'z yuritadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qib o'rganish va tahlil qilish jarayonida shunday ko'nikma va malakalarni tarkib too'tirish, yanada takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Inson tafakkuri uning ruhiyati bilan chambarchas bog'liqlikda harakat qiladi. O'quvchi ruhiyati boy, dunyoqarashi keng, bilimi chuqur bo'lsa, fikrlari ham, mulohazalari ham asosli, mantiqli bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish va tahlil qilishdan ko'zlanuvchi metodik maqsadlardan eng muhimi o'quvchini mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga o'rgatish, ravon so'zlash, tafakkur shakllariga tayanib hayot hodisalari zamiridagi ma'nolarni anglab olishga o'rgatish, kulgu yo o'and-nasihatlar ortiga yashiringan haqiqatlar mohiyatini tushunib, xulosa chiqarishga yo'llashdir.

Bolaning fikrlashi va ilm olishga intilishi o'zaro uzviy aloqadorlikdagi jarayondir. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish va tahlil qilish jarayonida xalq yaratgan qahramonlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvori, ruhiy olamga munosabat bildirishi o'quvchini fikrlashga yo'naltiradi.

¹ Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1999.- 40- b.

Bugungi kunda O'zbekistonda zavq bilan o'qitayotgan, maroq bilan aytilayotgan doston, ertak, qo'shiq, maqol, too'ishmoq, afsona, rivoyat, askiya va latifa, loflar o'zbek xalq og'zaki ijodining janrlari hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi asarlari tahlili ajdodlarimizning yosh avlodni barkamol kishilar qilib voyaga yetkazish borasidagi qadimiy va ilg'or an'alarini tiklash yo'lidagi muhim bir qadamdir. Zero, «Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflı vazifa turgan bir o'aytda bu ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati ming karra ortdi. Nega deganda, har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot baro'o etish, avvalo shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodiga bog'liqdir. Shu boisdan ham hozirgi kunda, xalqimiz, farzandlarimiz iqbolini o'ylab, qattiq bel bog'lab mehnat qilayotgan ma'suliyatli bir davrda mazkur tushunchalar yanada teran ma'no kasb etadi»¹.

Aslida avlod-ajdodlarimiz ham farzandlarni umumbashariy tuyg'ular, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida folg'klor asarlarining yuksak ma'naviy qudratidan samarali foydalanib kelishgan. Folg'klor xalq ommasining ijodiy salohiyati natijasida yuzaga kelganligi, asrlar davomida badiiy estetik an'ana tarzida yashab kelayotganligi, turli-tuman variantlarda ommalashganligi, badiiy so'z izchil tizim sifatida shakllangan harakat va ohang uzvlaridan tarkib too'ganligiga ko'ra mohiyatan xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg'or va hayotbaxsh an'analarni o'zida mujassamlashtirgan ma'naviyat sarchashmasidir. Ana shu ma'naviy merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liq urf-odatlar, an'analalar alohida o'rin tutadi.

Shu o'rinda adabiyotdan sho'ro davrida yaratilgan dasturlar bilan amaldagi o'quv dasturini qiyoslaganda, xalq og'zaki ijodi namunalari tahlili orqali o'quvchining o'ziga xos ruhiy olamiga ta'sir ko'rsatish, ularning o'z tuyg'ulariga tayanib fikrlashlari uchun imkoniyat yaratish ko'zda tutilgani diqqatni tortadi.

¹ Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat.-T.: O'zbekiston, 1995. -127-128- b.

Istiqlol davrida yaratilgan adabiyot dasturlarida xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni ular ruhiyatiga yaqinlashtirish, har jihatdan yetuk, insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalash maqsadi belgilangan. Ta’lim jarayonining har bir bosqichida o‘quv materiallarini o‘quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, ruhiyati, intilishlari va qiziqishlarini e’tiborga olib munosabatda bo‘lish ko‘zda tutilgan. Agar 5-sinf o‘quvchilarini asar voqealari ichiga olib kirib, shu voqealarni tasavvur qilishga, ertak qahramonlari bilan turli sarguzashtlarni «boshdan kechirishga» yo‘llash muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, 6-7-sinf o‘quvchilari ishtiyoqini to‘g‘ri yo‘naltirib, xilma-xil o‘quv topshiriqlari vositasida faolliklarini orttirishga erishish mumkin. Bu yoshda bolalarning tafakkuri rivojlanadi, ma’naviy-intellektual qobiliyatlari shakllanadi. Ana shu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun xilma-xil dars shakllari, ta’limning samarali usullaridan foydalanib, bola shaxsini shakllantirishga e’tibor qaratish zarurligi mazkur muammoning metodik jihatlarini tayin etadi.

«Doston» so‘zi qissa, hikoya, shonu-shuhrat, sarguzasht, ta’rif va maqto‘v ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy atama sifatida yirik hajmli epik asar nazarda tutiladi. Dostonlarda tasvirlangan voqea-hodisalar yakka shaxs, favqulodda kuch-qudratga ega bo‘lgan xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Badiiy adabiyotda asosan, ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og‘zaki ijodida baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylanib kelingan dostonlardir. Masalan, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlar, «Malikai ayyor», «Ravshan», «Kuntug‘mish», «Rustamxon» kabilar og‘zaki dostonlar namunalaridir. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro‘z», Alisher Navoiyning «Hayrat ul abror», «Farxod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi.

G.Xolboyeva o‘zbek xalq dostonlarini quyidagi tarzda qahramonlik, romantik va tarixiy turlarga bo‘ladi:

1. «Alpomish» dostoni qahramonlik dostonlari sirasiga kiradi. Dostonda insoniylik, adolato‘arvarlik, haqiqiy do‘stlik, sevgiga sadoqat, Vatan tuyg‘usi kabi g‘oyalar kuylanadi.

2. Romantik dostonlar. Bu turga «Yusuf bilan Ahmad», «Go‘ro‘g‘li», «Kuntug‘mish», «Ravshan» kabi dostonlar kiradi. Bunday dostonlar asosini ko‘tarinki ishq tuyg‘ulari va bu yo‘ldagi jasoratlar tashkil qiladi.

3. Tarixiy dostonlar. Bunday dostonlarga «Tulumbiy», «Shayboniyxon», XX asr boshida yaratilgan «To‘lg‘anoy» singarilarni kiritish mumkin³.

Og‘zaki ijoddagi dostonlarni baxshilar kuylaydilar. Qadimda «Baxshi» so‘zi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi «tabib», ayrim hududlarda «ustoz» ma’nolarini anglatgan. Bugungi kunda xalq dostonlarini kuylaydigan san’atkor ma’nosini bildiradi. Dostonlar ham she’riy, ham nasriy o‘archalardan iborat bo‘lib, baxshi soz chertganda sozanda, she’riy o‘archalarni kuyga solib aytganda xonandaga aylanadi. Ijrochi baxshilar do‘mbira, tor, dutor chalib, qo‘biz chertib doston aytganlar. SHu bois dostonchilik kechalari har bir tinglovchi uchun katta bayram bo‘lgan. Bunday kechalarda odamlar o‘rtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan.

Dostonlar ham barcha janrlar qatori xalq og‘zaki ijodida muhim o‘rin egallab, bolalarni barkamol qilib tarbiyalashda keng ko‘lamda foydalanib kelingan. Dostonchilik asosan, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida keng tarqalgan. Dostonlarda kishi kamolotining barcha qirralarini tarbiyalashni, ya’ni vatano‘arvarlik, do‘stlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, ilm va fanga qiziqish, jismoniy kamolot, dovyuraklik, jasoratlilik, kasb-hunarli bo‘lish, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, to‘g‘rilikning egrilik ustidan tantanasi, yuksak odob va axloq, manmanlik va maqtanchoqlining zararli oqibatlari, ichikilik va qimorbozlikning razil oqibatlari, o‘zaro yordam, tabiatga qiziqish va uni muhofaza qilish, boylikka xirs qo‘ymaslik va uning yomon oqibatlari kabilarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodining yirik namunasi hasoblangan dostonlarda

³ Xolboyeva G. Xalq dostonlarida milliy qadriyatlar ifodasi // J. Xalq ta’limi. – 2004. №4. – B. 79.

umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan. Ularda xalqning turmush tarzi, axloq odobi, urf-odatlar, marsoimlari, anʼanalari, insoniy va maʼnaviy qadriyatlari, diniy eʼtiqodlari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yoʻlidagi mardonavor kurashlari, vatanoʻarvarligi, sevgi-muhabbatga sadoqati, kelajakka ishonchi yaqqol ifodalanadi. Buni «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Rustamxon», «Murodxon», «Oysuluv», «Shirin bilan Shakar», «Kuntugʻmish» kabi dostonlarda koʻrish mumkin. Chunki bu dostonlar, avvalo, xalq pedagogikasining tarkibiy qismini tashkil etib, ularda ota-ona, oʻzgalarga hurmat tuygʻusi, doʻstlik va hamkorlik, xayru saxovat va mehmonnavozlik, sevgi va sadoqat, jasurlik va qahramonlik fazilatlari kabi insonparvarlik sifatleri ulugʻlangan.

«Alpomish» dostonidagi voqealar hayotiyliigi va taʼsirchanliigi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylik, samimiyat, toʻgʻrilik, hamiyatlilik, doʻstga sodiqlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat boʻlgan oʻzbek milliy ruhiyati yaqqol koʻrinadi.

«Kuntugʻmish» dostonida bolalarni mehnatsevarlikka undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntugʻmish degan yolgʻiz oʻgʻli boʻlib, oʻn toʻrt yoshga toʻlguncha ilm-hunar oʻrganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. Oʻn toʻrt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, koʻpkari chopish kabi sipohilik hunarlarini oʻrganadi, har tomonlama komil shahzoda boʻlib yetishadi.

«Ravshan» dostoni ham eʼtiqod yoʻlida sobit tura oladigan imonli kishilarni madh etuvchi, ezgulik, mardlik va botirlikni ulugʻlovchi, zulm-zoʻravonlik, adolatsizlikni qoralovchi mazmuni oʻzida aks ettirgan asardir. Dostoning yuksak insoniy fazilatlarga ega boʻlgan qahramonlari Ravshan va Hasanxon pok qalbi, adolatparvar, hamisha zulmga, nohaqlikka qarshi kurashgan, jabrdiydalarga yordam qoʻlini choʻzgan mard kishilardir.

«Malikai ayyor» dostoni ham «Goʻroʻgʻli» turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Dostonda or-nomus, iroda, chidam, topqirlik singari ezgu maʼnaviy-axloqiy sifatlar tasvirlanadi. Oʻzbek yigitlariga xos eng oliyjanob

fazilatlar Avaz timsolida aks etgan. Dostonda xalq maqollari, matal va qo‘shiqlaridan juda keng foydalanilgan.

Xalq og‘zaki ijodi tarkibidagi doston va yozma adabiyot namunasi sanalmish dostonlar bir xil atalishidan qat’i nazar, yaratilishi, shakliy xususiyatlari, ijro qilinishi jihatlari bilan farqlanadi. Xususan, og‘zaki ijod dostonlari ma’lum nisbatda navbatlashib kelgan nasriy va she’riy matnlardan tashkil topadi. She’riy qismlar erkin band tuzilishi va qofiyalanishga ega bo‘ladi.

Xalq dostonlari ma’lum shaxs tomonidan og‘zaki tarzda yaratilgan bo‘lib, ular turli ijodkorlar tomonidan ijro etilib, avloddan-avlodga o‘tib, sayqallanib, an’anaviylik kasb eta boradi. Natijada uning muallifini aniqlash qiyin bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham bu xil asarlar jamoa ijodi mahsuli deb qaraladi. Yozma adabiyot namunasi sanalgan dostonlar esa, muayyan ijodkor qalamiga mansub bo‘ladi va shu holicha saqlanadi.

Zamonaviy folklorshunoslikda o‘zbek xalq dostonlarining bir necha tasnifi mavjud: 1) qahramonlik dostonlari; 2) ishqiy-romanik dostonlar; 3) jangnoma dostonlar; 4) kitobiy dostonlar; 5) tarixiy dostonlar. Ammo folqlorshunoslikda ularni 1) qahramonlik dostonlari; 2) romanik dostonlar; 3) jangnoma dostonlar sifatida ajratish taomilga kirib qolgan.

Yozma adabiyotdagi dostonlar faqat she’riy shaklda bo‘lib, odatda bir xil – masnaviy tarzda qofiyalanadi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari turkiy yozma dostonchilikning ilk yirik namunasidir. O‘zbek mumtoz adabiyoti kutubxonasi g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak darajada bitilgan dostonlarga boydir. Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro‘z» asari, Alisher Navoiy «Xamsa»si tarkibidagi dostonlar, Muhammad Solihning «Shayboniynoma» dostoni shular jumlasidandir.

Yozma dostonchilik XX asr adabiyotida ham davom etdi. Oybek, H.Olimjon, A.Muxtor, A.Oripov, E.Vohidov, O.Matjon, Muhammad Ali singari shoirlar tarix va davr voqeligi, chet elliklar hayotining turli masalalariga bag‘ishlangan rang-barang mavzularda dostonlar yaratishdi. Keyingi yillar she’riyatida Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Faxriyor singari shoirlar tarixiy va zamonaviy

mavzudagi badiiy barkamol dostonlari bilan kitobxonlar nazariga tushishmoqda.

O'quvchilar shu tarzda faqat dostonning o'zi haqida emas, balki, uning turlari, og'zaki va yozma dostonlarning o'xshash va farqli jihatlari haqidagi nazariy tushunchalarni ham bilib olishadi. Bu bilimlarni mustahkamlash uchun bir qator savollar bilan murojaat etish mumkin.

1. Doston deganda nimani tasavvur etasiz?
2. Hozirgacha bu janrning qaysi namunalari bilan tanishgansiz?
3. Avval xalq og'zaki ijodiga, so'ng yozma adabiyotga oid bo'lgan doston namunalariga misollar ayting.
4. Ularning qaysi jihatlari bir-biriga o'xshaydi.
5. Ularning farqli jihatlari izohlab bering.
6. Yuqoridagi ma'lumotda yozma adabiyotdagi dostonlarda masnaviy tarzining yetakchilik qilishi haqidagi mulohaza bor. Og'zaki dostonlarda ham shu xislat saqlanadimi?
7. Badiiy ijod namunalari inson ma'naviyati, dunyoqarashi va ruhiyatini boyituvchi qudratli vosita xisoblanadi. Xalq dostonlari misolida shu fikrni dalillashga harakat qiling.

8. Islom shoirning hayoti va ijodiga oid ixcham referat yozing.

Keyingi yillarda o'quv darsliklariga xalq, og'zaki ijodi namunalarining kiritilishi bilan birga, ularning metodik ishlarida folg'klarning nisbatan ixcham va ommaviy janrlar: too'ishmoq va tez aytishlar, maqol va hikmatlar, ertak va rivoyat, afsona, doston, askiya, latifalarni o'qitishning maqsad, vazifa, usul va shakllari atroflicha bayon qilingan.

Xalq ijodining ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Chunki ertak, doston, terma, maqollar, qo'shiq va laparlar o'zining teran mazmuni, badiiyligi bilan kishi qalbini rom qiladi. Bunday asarlarda xalq donoligi hamda ko'p asrlik hayotiy tajriba mujassam. Shunday ekan, shubhasiz, xalq badiiy so'zining tarbiyaviy qudrati yuksak, undan yosh avlodni tarbiyalash maqsadlarida foydalanish ijobiy natija beradi.

Amaldagi Davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha hozirgi darsliklarda maktablarimizning 5 - 6 sinflarida xalq og'zaki ijodi kengroq o'qitiladi. Darslikda maqol, hikoyat, ertak, afsona, topishmoq, latifa va askiyalar haqida keng ma'lumot beriladi. Undan maqsad ta'limning dastlabki bosqichlaridanoq, o'zbek xalqining boy, madaniy merosi – milliy qadriyatlari sifatida folg'klorning ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni, janr xususiyatlari va shakllarini, urf-odat va marosimlari, ularni ifodalash, ijro etish jarayonlarni o'quvchi ongi - shuuriga singdirish, ularni ezozlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ikkinchi bosqichda xalq og'zaki ijodi namunalaridan faqat dostonlar o'qitish nazarda tutilgan.

Dasturga 7 – 9 sinflarda, “Quntug'mish”, “Ravshan”, “Alpomish” dostonlari kiritilgan.

Ilgari xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot berishda ko'pincha ishni xalq dostonlaridan boshlash an'ana tusiga kirgan edi. Haqiqatdan ham doston o'zbek xalq xazinasining bebaho durdonasi. Albatta, ilk dars mashg'ulotlarini dostonlardan boshlash maroqli. Ammo kichik yoshdagi o'quvchilarga yirik hajmdagi dostonlar bilan to'liq tanishish biroz murakkablik qilar edi. Shuning uchun ham xozirgi kunda esa dostonlar haqida ikkinchi bosqichda ma'lumot beriladi.

Har bir doston o'qitilishiga kamida uch soatdan besh soatgacha vaqt ajratilgan. Yirik hajmdagi “Alpomish” dostonini o'rganish uchun 9 sinf adabiyot darsida 5 soat ajratilgan.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish haqidagi bir soatlik “Alpomish” dostonini o'tish jarayoni quyidagicha tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Dars maqsadi:

- doston bilan amaliy tanishtirish, dostonning boshqa janrlardan farqli belgilarini ko'rsatish;
- matnni ifodali o'qish, badiiy hikoya qilish, bu borada tegishli ko'nikma hamda malaka hosil qilish;

- doston ijrosini tinglash orqali uning mohiyatini idrok qilish, o'quvchi ruhiyatini his etish, o'quvchilarni ahloqiy va estetik ruhda tarbiyalash.

Dars turi: yangi bilim, ma'lumotlar berish, dastlabki ko'nikmalarni boyitish.

Dars metodi: bahs-munozara.

Dars jihozi: Fozil Yo'ldosh o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li tomonidan ijro etilgan "Alpomish" dostoni: audiokassetalar, disketlar, doston yozilgan videokassetalar va kompakt disklar, ularni namoyish qilish uchun o'qitishning texnikaviy vositalari, darslik va ikki tomlik "Alpomish" dostoni.

Darsning borishi: dars tashkil qilingach, darsning mavzusi oldindan berib qo'yilganligini eslatish, dostonning g'oyaviy mazmuni bilan tanishish, voqea va timsollar yuzasidan munozara uyushtirish, matnni ifodali o'qish va badiiy hikoya qilib berish.

O'quvchilarning quyi sinflarda xalq og'zaki ijodi janrlari bo'yicha olgan bilim, malakalariga tayangan holda halq dostonlari xususidagi fikrlari so'raladi. To'rt, besh o'quvchidan qisqacha so'ralgandan so'ng o'qituvchi ular fikriga qo'shimcha umumiy fikr qo'shadi, mustahkamlaydi.

O'qituvchi: xalq og'zaki ijodi asarlari orasida shundaylari ham borki, ular ifodalanishi, tuzilishi jihatidan juda sodda, ertaklar kabi o'ziga tortadigan, sehrli, biroq hajmi jihatidan katta, mazmun ko'lamiga ko'ra, inson hayotining ko'plab tomonlarini qamrab olgan, ifodalanish usuli va ijrosi ham o'ziga xos bo'lib uni xalq dostoni deyiladi. Xalq dostonlari tarixan ma'lum xalq shoiri tomonidan og'zaki tarzda yaratilib, boshqa ijodkorlar tomonidan sayqal berilib avloddan-avlodlarga, nasldan naslga o'tib keladi. Natijada uning yaratuvchisi unutilib, xalq mulkiga, xalq ijodiga aylanib qoladi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodidagi dostonlar jamoaning ijod mahsuli deb qaraladi.

Har bir xalqning tarixiy o'tmishini, milliy taraqqiyot yo'lini, turmush tarzini bevosita aks ettiradigan dostonlar bo'ladi. O'zbek xalqida "Alpomish", "Go'r o'g'li", "Rustamxon" va boshqalar, qirg'iz xalqining "Manas", qoraqalpoq xalqining "Qirq qiz", hind xalqining "Mahabharat", "Ramayana" dostonlari ana shunday dunyoga mashhur dostonlardir.

Dostonlar ayrim kishilar tomonidan mahorat bilan og‘zaki ijro etilgan. Bunday doston ijrochilarini o‘zbeklar “baxshi” deb ataydilar. Demak, dostonlar, xalq baxshilari tomonidan ijro qilingan.

Doston ijrosini televizorda kimlar tomosha qilgan, kimlar radiodan tinglashga muvassar bo‘lgan, deb o‘quvchilarga murojaat qilinadi. Tomosha qilgan, eshitgan o‘quvchilarning taassurotlari so‘raladi va suhbat o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

Suhbatdan keyin o‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini jalb qilib, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijro etgan “Alpomish” dostoni audiokassetasini eshittirishga qo‘yadi (3-5 daqiqa).

Dostondan parcha tinglangach, o‘qituvchi o‘z bayonini davom ettiradi. O‘qituvchi endi “Alpomish” dostonining o‘qilishini e‘lon qilib, suhbatini davom ettiradi.

O‘quvchilar tomonidan “Alpomish” dostoni yoddan ifodali qilib, badiiy o‘qiladi. Keyin “Alpomish” dostoni asosida tayyorlangan filmdan lavha ko‘rsatiladi.

Ifodali, badiiy o‘qishdan, kinolavhadan zavq olgan o‘quvchilarning erklarini o‘zlariga qo‘yib, erkin mulohaza – bahs yuritishlariga imkon beriladi (3-4 daqiqa).

Qahramonlarning tavsiflarini ta’sirli berishda voqea-hodisa sodir bo‘layotgan vaziyat, holat, o‘ersonajlarning aytishuvlari, qanday mavqedagi shaxslar orasida kechishi o‘qilgach, dostonning g‘oyaviy mazmunini tushuntirish ishi boshlab yuboriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilib, doston mazmunini sodda, ixcham va xalq tilida ayrim syujetlarni badiiy hikoya qilib beradi. So‘ngra o‘quvchilarga doston mazmunini og‘zaki hikoya qilishga tayyorlanishga vazifa topshirib o‘zi doskaga suhbat uchun savollarni yozib qo‘yadi:

1. Boybo‘ri va Boysari o‘rtasidagi nizo qanday kelib chiqdi?
2. Alpomish va Qorajon qaerda uchrashib qolishadi?
3. Bandi bo‘lgan Alpomish kim tomonidan qutqariladi?
4. Alpomish siymosidagi sizga yoqqan fazilatlar qaysilar?

5. “Alpomish” dostoni necha yilligi yurtimizda keng nishonlandi?

Shu asnoda suhbat uyushtirilib kimki “Alpomish” dostonini to‘liq mazmuni bilan tanishishni xohlasa darsdan tashqari vaqtlarda maxsus “Doston o‘qish” davrasi mashg‘uloti tashkil qilishni aytib, o‘qituvchi sinf jamoasi e’tiborini komputerdan kompakt diskka tushirilgan “Boysun bahori” festivalida ijro etilgan “Alpomish” dostonining ijrosini tinglashga o‘quvchilar diqqatini jalb qiladi.

Darsning tugashiga ikki, uch daqiqa qolganda o‘qituvchi eshittirishni to‘xtatib o‘quvchilarning fikrlarini eshitadi va uyga vazifa beradi:

- darslikdagi “Alpomish” dostoni matnini bir necha marta o‘qib, ifodali hikoya qilishga, doston tahliliga tayyorlanib kelish;
- doston mazmuni asosida ijobiy matn yaratish topshiriladi.

Dostonlarni o‘rganishda o‘quvchilarning nazariy tushunchalar haqidagi bilimlari ham mustahkamlanib boriladi, ular xalq og‘zaki ijodining barcha janrlarini o‘zida aks ettirgan savol va topshiriqlar tizimi orqali bilimlarini mustahkamlab borishi nazarda tutiladi.

1.2. Xalq dostonlari va ularni tahlil qilish usullari

Maktabda badiiy adabiyot namunalarini o‘qitish jarayonida metodika psixologiya, umumiy pedagogika fanlari yutuqlariga ham amal qiladi. Metodist olim, professor A. Zunnunov haqli ravishda ta’kidlaganidek, «... pedagogikaning didaktik prinsiplari adabiyot o‘qitish metodikasiga bevosita aloqadordir»¹.

Darhaqiqat, xalq og‘zaki ijodi asarlarini tahlil qilishda o‘qituvchi psixologiya faniga ikki jihatdan tayanadi: a) xalq og‘zaki ijodi asarlarida ruhiyatning ifodalanish xususiyatlarini anglab olishda; b) ana shu xususiyatlarning milliy qadriyatlar bilan bog‘lanuvchi jihatlarini o‘quvchilar ruhiyati, bilimi, hayotiy tajribalariga moslab tushuntirishda.

Taniqli adabiyotshunos va metodist olim Q. Yo‘ldoshev so‘zlari bilan aytganda: «Adabiyot o‘qitishning vazifasi har bir xalqni o‘zigagina xos ma’naviy

¹ Zunnunov A., Esonov J. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1992.-13-14- b.

qadriyatlar majmuida idrok etish mumkin ekanligini o'quvchilarga singdirish hamdir. Zero, o'z ma'naviyatini qanday qadriyatlarga tayanib shakllantirishni bilmagan shaxs xaritasiz noma'lum yurtga sayohat qilgan kishiga o'xshaydiki, ko'zlagan manzilini aniq tasavvur eta olmay uzoq sargardon bo'lish xavfi bor. Adabiy ta'lim o'z tarbiyalanuvchilarida milliy qadriyatlarga tayangan holda xulqiy sifatlarni shakllantirishday nozik yumushni uddalashi zarurdir... Xullas, adabiy ta'lim o'z oldidagi vazifalarni bekamu ko'st bajargan taqdiridagina barkamol shaxsni shakllantirishday ezgu maqsadga erisha oladi»².

Darhaqiqat, jamiyatimizning buguni, ertasi va kelajagi ko'p jihatdan yoshlarimiz tarbiyasiga bog'liq ekanligi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ham ko'p marta ta'kidlangan. Mustaqillikni mustahkamlash, adolatli va ma'rifatli demokratik jamiyat barpo etish jarayonida yoshlarni do'stlik, hamkorlik, hamdardlik, birodarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ajdodlarimiz hamda avlodlarimizni bir-biriga tutashtirib, avlodlar davomiyligi va vorisligini ifodalab kelayotgan qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Xalq dostonlarida ham milliy qadriyatlarimizning qator ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ming yillar davomida sayqal too'ib milliy, ayni o'aytda, umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirib borish adabiy ta'lim oldidagi hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biridir.

Xalq dostonlari markazidagi g'oyalarda azal-azaldan avlodlar o'rtasida poklik, halollik, haqqoniylik, adolat, lafz, oriyat, obro', g'urur, kechirimlilik, qadr-qimmat, bag'rikenglik, insof-diyonat singari qadriyatlar o'z aksini too'gan. Yuqorida sanab o'tilgan umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda katta imkoniyatlarga egadir. Bu imkoniyat dostonlarda umuminsoniy qadriyatlarda insoniy munosabatlar madaniyati o'z ifodasini too'ganligida ko'zga tashlanadi. Masalan, kattalar bilan kichiklarning ahlligi, ota-onaga hurmat, ota-bolalar munosabati, kasb- hunarga ishtiyoq, Vatanga bo'lgan e'tiqod va muhabbat, do'stlarga sadoqat tushunchasi shular jumlasidandir.

² Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996.-45- b.

O'zbek xalq dostonlari xalqimiz ma'naviy madaniyatining sermazmun sohalaridan biri hisoblanadi. Dostonlarda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar dunyoqarashning boshqa masalalariga qaraganda, keng ko'lamda ifoda etilishi bilan ajralib turadi. O'lmas asarlar ijodkori bo'lgan xalq tabiatdan ayriча yashay olmas ekan, tabiat va inson munosabatlari u yaratgan dostonlarda ham o'zining chuqur aksini too'ishi tabiiy.

Shunday ekan, dostonlardagi bu g'oyalar, qarashlar va munosabatlar bir xalq, bir millat uchun zarur qadriyat bo'lib qolmay, balki ko'plab xalqlar va millatlar uchun ham qadrlı bo'lgan umuminsoniy qadriyatlardir.

Doston - o'zbek folg'klarining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. «Doston» so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi.

O'zbeklarda baxshi – keng ma'noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o'tkazuvchi so'z san'atkori hisoblanadi. Baxshilardan Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Po'lkān shoir, Abdulla shoir va boshqalar tomonidan ko'plab dostonlar kuylanib, bizgacha yetib kelgan.

O'zbek xalq dostonlari o'z mazmuniga ko'ra qahramonlik, romantik va tarixiy dostonlar kabi uch yirik turga bo'linadi:

1. Qahramonlik dostonlari. Qahramonlik dostonlaridan bizgacha «Alpomish» dostoni yetib kelgan. «Alpomish» dostoni insono'arvarlik va adolat g'oyalarini o'zida mujassam etgan asardir. Dostonda yuksak insoniylik, adolato'arvarlik, haqiqiy do'stlik, sevgiga sadoqat, vatan tuyg'usi kabi yuksak g'oyalari kuylanadi.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» asarida shunday deydi: «Xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini nomoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti desak, to'g'ri bo'ladi. Asarda o'zligini doimo saqlagan el-

yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Qancha avlod ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, pzigini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi »¹.

2. Romantik dostonlardan «To'maris», «Yusuf bilan Ahmad», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Ravshan» kabilar bizgacha turli variantlarda yetib kelgan. Bunday dostonlarning asosiy mazmunini ko'tarinki ishq tuyg'ulari va bu yo'ldagi jasoratlar madhi tashkil qiladi.

3. Tarixiy dostonlarga «Tulumbiy», «Shayboniyxon», «Xurshidoy», «To'lg'anoy» kabi dostonlarni misol qilib keltirish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha dostonlarda milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz o'z aksini too'ganligi uchun ham ularga bugungi o'quv dasturi va adabiyot darsliklaridan xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida o'rin ajratilgan.

7,8,9-sinflarning "Adabiyot" o'quv faniga daxldor DTS, dastur va darsliklariga nazar solsak, xalq dostonlariga, xususan, "Ravshanxon", "Kuntug'mish" va "Alpomish"ni o'rganishga alohida o'rin ajratilganligini kuzatamiz. Xususan, 7-sinf dasturida «Xalq og'zaki ijodidan» ruknida «Ravshanxon» dostoniga uch soat ajratilgan bo'lib, unda dostonlar va ularning turlarini, ishqiy-sarguzasht, xususan, «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarning o'zbek xalq dostonchiligida tutgan o'rnini ko'rsatish, doston matnining saqlanib qolishi va mashhur bo'lishida Ergash Jumanbulbulning xizmati katta ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, dostondagi Go'ro'g'li, Yunuspari, Avazxon, Ravshanxon, Zulxumor, aka-uka kallar timsollarining tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. «Ravshanxon» dostonidan biror parcha yod olinishi belgilab qo'yilgan. Og'zaki va yozma ish shaklida o'quvchilarga bir qator topshiriqlar berilgan. Nazariy bilimlar uchun badiiy obraz haqidagi ma'lumotlar tavsiya etilgan.

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, «Ma'naviyat», 2008. -34-6.

7-sinf darsligida «Ravshanxon» dostoni matni yuzasidan 36 ta savol-topshiriq berilganki, ularning hammasi o'quvchilarning mazkur mavzuni yanada mustahkam va atroflicha o'zlashtirib olishiga xizmat qiladi ⁴.

7-sinf «Adabiyot» dasturida «Ravshan» dostonini o'rganish uchun jami 3 soat ajratilgan. Birinchi soatda «Ravshan» dostonining yaratilish tarixi hamda o'zbek xalq dostonchiligida katta o'rin tutishi haqidagi nazariy ma'lumotlar berilib, ikkinchi soatda dostondan berilgan parchani ifodali o'qib, uning mazmuni, asar qahramonlarini tahlil qilish ko'zda tutiladi.

Uchinchi soatda o'tmishda ota-bobolarimiz qanday an'analarga, urf-odatlariga rioya qilganliklari, doston voqealari turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan an'analarga asosida yaratilganligi haqida ma'lumot beriladi. Dostondagi Go'ro'g'li, Yunuso'ari, Avaxxon, Ravshan, Zulxumor, aka-uka kallar timsollari tahlilida ular amal qilgan aqidalar, imon-e'tiqod, urf-odatlar, an'analarga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Bu qahramonlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishi natijasida nimalarga erishganligi yoki aksincha holatlarini o'quvchilar tahlil qilishiga sharoit yaratish lozim.

Tahlil davomida dostonlarning asosiy qismi ishqiy sarguzashtlarga bag'ishlanganligi, o'zbek xalqi juda qadim zamonlardan buyon chin insoniy muhabbatni qadrlaganligi ta'kidlab ko'rsatiladi. Ota-bobolarimiz o'zining ma'naviy va jismoniy yetukligiga tayangan holda yor tanlaganlar, yorga yetishish yo'lida esa mardona kurashib, or-nomusini himoya qilganliklari dunyo xalqlariga axloqiy namuna bo'lib kelganligiga o'quvchilar diqqatini tortish foydalidir.

«Ravshan» dostoni otashin va samimiy muhabbatni kuylovchi, pok va samimiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan imonli kishilarni madh qiluvchi, ezgulikni, mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi, milliy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan asar sifatida o'rganilishi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lgan qahramonlarimiz Hasanxon va Ravshan pok qalbi, adolatparvar, hamisha zulmga, noxaqlikka qarshi

⁴ Йўлдошев Қ, Б.Қосимов, Қодиров В, Йўлдошбеков Ж. Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 7-синфи учун дарслик- мажмуа. Тошкент, 2009, 156-158.

kurashgan, jabrdiydalarga yordam qo‘lini cho‘zgan mard kishilar sifatida ulug‘lanadi. Or-nomus, sof vijdon va halollikni insoniy burch mezonlariga aylantira olgan xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi qahramonlar yoshlarga tarbiya namunasi vazifasini o‘tashi aniq.

Xalq dostonlari markazidagi insono‘arvarlik g‘oyalari insoniy baxt, erkinlik, ma’naviy-axloqiy barkamollik, vatanni sevish, inson zotini yuksaklikka ko‘tarish, unga nisbatan hurmat-e’tiborli bo‘lishga undaydi. Bu g‘oyalar zaminida esa ajdodlarimizning o‘z ona yeriga muhabbati, vatanparvarligi, bosqinchilarga nafrati, mardona kurashi, ayollarga hurmat va muhabbati qalqib turadi. Dostonlarda yaxshilik, mehr-muhabbat, insof va diyonat, rostgo‘ylik kabi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashganki, bu jihatlarni o‘rganib, tahlil qilish turli pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

1. Adabiy ta’limning uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga tayanish o‘zbek adabiyoti tarixining, xususan xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘quvchilarning tizimli tarzda idrok etishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Xalq og‘zaki ijodi namunalari mazmunidagi asosiy mohiyatini idrok etish; ularda ko‘tarilgan axloqiy-ta’limiy muammolar haqida tasavvur hosil qilish; ulardagi tasviriy ifoda vositalari: iboralar, metafora, majoz, o‘xshatishlarning badiiy vazifalari tahlilida interfaol metodlaridan foydalanish ijobiy samaralar beradi.

3. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi milliy qadriyatlar tahlili natijasida o‘quvchilarda insoniy ezgu ishlarga ko‘ra hurmat qilish va qadrlash tuyg‘usi shakllanadi, har ishda adolat tantanasiga ishonch ortadi.

9-sinfning “Adabiyot” darsligida «Xalq og‘zaki ijodidan» rukni ostida «Alpomish» dostoni maxsus o‘rganiladi va unga besh soat ajratilgan. Dasturda ko‘rsatilishicha, turkiy xalqlar madaniyati va ma’naviyati shakllanishida «Alpomish» dostonining o‘rni, epik ko‘lamining turkona estetik tafakkur va turkiy saltanatchilik bilan bevosita bog‘liqligini yoritib berish nazarda tutilgan. Qomusiy epik asarning siyosiy saltanat va yuksak milliy madaniyatga ega xalqdagina bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratilgan. Bulardan tashqari, mavzuni o‘rganish

jarayonida dostonidagi o'zbekning milliy ruhiyati va urf-odatlarini tasviri, mardlik, sadoqat, ezgulik, imonga egalik fazilatlarining Alpomish, Qorajon, Oybarchin, Qaldirg'och obrazlari orqali ifodalanishi, shuningdek, asarning til xususiyatlari va unda qo'llanilgan tasvir unsurlari, dostonning bizgacha badiiy yuksak holda yetib kelishida Fozil Yo'ldosh o'g'lining xizmatlari alohida ekanligi uqtiriladi va shular asosida «Alpomish» dostoni haqida kengroq, atroflicha ma'lumotlar berishga erishiladi.

Bu dasturda nazariy ma'lumot uchun «Xalq dostonlari va ularning turlari» mavzusi belgilab berilgan. O'quvchilar yod olishi mumkin bo'lgan asarlar ro'yxatiga «Alpomish» dostonidan parcha ham kiritilgan. 9-sinfda adabiyot bo'yicha og'zaki va yozma ishlarning shakllari ko'rsatilgan. Masalan, «O'qilgan badiiy asarlarning janr xususiyatlarini aniqlash, o'rganilgan asar bo'yicha taqriz-hikoya tuzish, bir yoki bir necha obrazni tavsiflash» kabi topshiriqlar yozma ishlar guruhiga kiritilgan. «O'rganilgan asar tarkibidagi badiiy san'atlar va usullarni aniqlashga qaratilgan muammoli insho yozish, muayyan badiiy asarlar to'g'risidagi ilmiy-ma'rifiy maqolalar bo'yicha taqriz rejasini tuzish, ulardan ko'chirmalar olish hamda asosiy fikrlar tizimini ifodalash, sinfdan tashqari o'qilgan asarlar asosida adabiy-badiiy insho yozish» kabi bir qator topshiriqlar esa yozma ishlar guruhiga kiritilgan.

Yana shuni ta'kidlash joizki, 9-sinf o'quvchilarining bilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan quyidagi talablar ham «Alpomish» dostonini o'rganishda juda qo'l keladi: o'rganilgan asar matnini lug'at yordamida, yod olingan asarlar matnini lug'atsiz sharhlay olish; doston va ularning turlari kabi nazariy tushunchalarning o'ziga xos tomonlarini izohlash; nasr va nazm, ramz va ramziy obrazlar, badiiy asar syujeti va badiiy qurilmasi haqidagi nazariy ma'lumotlarni amaliy mashg'ulotlar mobaynida tatbiq eta olish; badiiy adabiyotga doir ilmiy, adabiy-tanqidiy asarlar, lug'atlar, ma'lumotnomalardan foydalanish.

Albatta, 9-sinf o'quvchilari bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan bunday talablarni o'uxta o'zlashtirib olish, shuningdek, «Alpomish» dostoni bo'yicha olingan bilimlarni yanada to'ldirish hamda mustahkamlash uchun

darslikda berilgan 18 ta savol-topshiriq⁵ muhim ahamiyat kasb etadi. Darslikda berilgan mazkur savol-topshiriqlarning barchasi ham dastavval o'quvchilarni o'ylashga, fikr yuritishga, buning uchun «Alpomish» dostoni matnini to'liq mustaqil o'qib chiqishga va shundan so'ng mustaqil mulohaza bildirishga yo'llaydi; doston syujetining qiziqarli, o'tmish tarix bilan bog'liqligi, xalq estetik tafakkurining nihoyatda yuksakligi, eng muhimi, dostonda tasvirlangan turkona hayot tarzi, yurt va Vatan birligi uchun kurashlar matonati haqida tiniq tasavvurlar o'aydo qiladi. Doston timsollaridagi xalqona mardlik, sadoqatlilik, ezgulik va imonga egalik kabi bir qator insoniy fazilatlarga mehr uyg'otadi, o'quvchilar shular asosida ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy jihatdan kamol too'ib boradilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari dastur va darsliklarining tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalari, ayniqsa, dostonlari asosida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi rivojida katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Lekin bunday o'edagogik muammoni yanada samarali hal etish uchun dastur talqinlarida, darslikda berilgan matnni o'zlashtirishga yo'naltiruvchi savol-topshiriqlarda har bir dostonning badiiy-estetik tahlili bilan birga uning tarbiyaviy didaktik ta'siriga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Binobarin, 2000 yilda adabiyotshunos olimlar B.To'xliyev va B.Sarimsoqovlar tomonidan akademik litseylar uchun adabiyot fanidan tuzilgan namunaviy o'quv dasturi yuqoridagi masalalarni to'la qamrab olganligi bilan xarakterlidir. Dastur mualliflari ta'lim yo'nalishlarini aniq belgilagan holda o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyati, intellektual rivojlanish darajasini hisobga olib, har bir bosqich uchun akademik litseylarning Davlat ta'lim standartida belgilab berilgan o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan adabiy ma'lumotlarni zamonaviy ta'lim me'yorlariga muvofiq holda mavzulashtirishgan, ayni shu mavzular uchun muayyan soatlarni ajratishgan, har bir mavzuda ko'rilishi lozim bo'lgan muammolar mazmunini atroflicha yoritib berishgan.

⁵ Y'ldoshev Q, Qodirov V, Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy y'rtta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, 2010, 26-bet

O'quv dasturining "Uqtirish xati" deb nomlangan kirish qismida dasturning umumiy tavsifi, yaratilish asosi, akademik litseylarda adabiyot kursining mazmun-mohiyati atroflicha yoritilgan, dasturning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan. Unda akademik litseylarda adabiyot o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi yuksak badiiy-estetik didni shakllantirishdan iborat ekanligi ta'kidlangan holda, ana shu maqsadni amalga oshirishdagi vazifalar aniq ko'rsatib o'tilgan. O'quvchilarning "badiiy asarlarni idrok etish qobiliyatini o'stirish, badiiy asarlar matnidagi o'ziga xosliklarni his etishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, yosh va yo'nalish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda badiiy asarni dastlabki tahlil qilishni o'rganish, badiiy matn bilan tanishuv, shuningdek, tahlil asosida og'zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish"⁶ kabi muhim vazifalarning alohida ta'kidlab ko'rsatilganligi adabiyot o'qituvchisining ham har bir mavzudan ko'zlangan pedagogik maqsad va vazifasini aniq belgilab olishiga yordam beradi.

Mazkur namunaviy dasturning yana bir e'tiborli jihati shundaki, mualliflar dasturda o'quvchilarning badiiy-estetik didini shakllantirish, adabiyot borasidagi bilimlarini kengaytirish, badiiy asar qurilishi, shakl va mazmun ko'lami, janr xususiyatlari, badiiy qonuniyatlar to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitishda badiiy tahlil imkoniyatlaridan foydalanishga asosiy e'tibor qaratishgan. Chunki badiiy tahlil usullari va tamoyillarining rang-barangligi, keng qamrovga egaligi bu borada ijobiy natijalarni yuzaga keltiradi.

Har qanday adabiy asar tahlili undagi qahramonlar timsolini o'rganish orqali amalga oshiriladi. Adabiyotning insonshunoslik ekanligini yaxshi bilamiz. Zero, badiiy asarlar markazida biri ikkinchisiga o'xshamagan rang-barang badiiy obrazlar harakat qiladi. Ular hayotdagiday betakror inson olamini, ruxiyatini, qiyofalarini ko'z o'ngimizda jonlantiradi, ana shu o'ziga xos insonlarni tushunishga yo'llaydi.

Dars jarayonida asar tahlilini to'g'ri tashkil etish, aniq maqsadli usullarni tanlay olish, darsni ilmiy – metodik asosda tashkil etish, o'quvchilarni tahlilga

⁶ B.T'yxliev, B.Sarimsoqov. Adabiyot. Akademik litseylar uchun o'quv dasturi. -T., 2000, 4- b.

yo‘llash, namunaviy tahlil darsini o‘tkazish, o‘quvchilarni eng ko‘pdarajada mustaqil fikrlashga undash – adabiy tahlildan ko‘zlanadigan ta’limiy maqsadlar hisoblanadi. Adabiy tahlil orqali o‘quvchilarning estetik didlarini o‘stirish; ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish va ma’naviy sifatlarni kamol too‘dirish esa bosh muddaodir.

Q.Yo‘ldoshev o‘zining “Alpomish” dostoni talqinlariga bag‘ishlangan kitobida “Har bir o‘zbekning milliy kitobiga aylanishi lozim bo‘lgan “Alpomish” dostoni zamiridagi badiiy javohirlarni izlab too‘ish, uning ko‘rkam va umrzoq asarligini ta’minlagan jihatlarini tayin etish dostonning aqli millat tomonidan tushunib va sevib o‘qilishini ta’minlagan bo‘lardi”⁷, deya to‘g‘ri e’tirof etadi. Olimning ushbu kitobida dostonning badiiyati va millatimiz ma’naviyati bilan bog‘liq so‘nggi kuzatishlari, filologik ilmimizda ma’lum ma’noda shakllangan ilmiy-ijodiy yondoshuvlar tizimidagi yangicha fikr-mulohazalari berilganki, buni muallifning o‘ziga xos sodda va ayni o‘aytda, teran tahlillari tasdiqlay oladi. Risolada keltirilgan tahlillardan bevosita adabiyot darslarida foydalanish imkoniyatlari katta. Ularning asosiy qismidan til va adabiyot o‘qituvchilari o‘z ish tajribalariga tatbiq etishlari yaxshi samara beradi. “Alpomish” tahliliga bag‘ishlangan bu ish andozasidan boshqa dostonlarni ham tahlil qilish qulaylashadi.

“Alpomish” dostonining mutolaasi bo‘yicha o‘quvchilarda dostonning asosiy g‘oyasi va yetakchi epik qahramonlar ruhiyatini o‘rganish malakasini rivojlantirishga ta’sirini aniqlash yuzasidan bir turkum savol-topshiriqlar berildi. Ular:

1. Dostondagi yetakchi g‘oya – oila sha’ni, or-nomusi va millat birligi g‘oyasi zaminida xalq baxshilarining yurt tinchligi va obodligini qay darajada tasvirlab berganligini izohlang? So‘ngra ularni yozma ravishda sharhlab keling.

2. Zakot deganda ko‘z oldingizga qanday tushuncha keladi? “Alpomish” dostonining Fozil shoir variantida aka-uka Boybo‘ri va Boysari, Qora baxshi

⁷ Yo‘ldoshev Q. “Alpomish” talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat ma’naviyati haqida ayrim fikrlar. - T.: Ma’naviyat, 2002. 6-bet

variantida esa aka-ukaning xotinlari – har ikkala ovsinlar, ya’ni, Kuntug‘mish oyim va Oltinoy orasida nima uchun, o‘zaro kelishmovchiliklar boshlangan va ularning sabablarini izohlang.

3. Dostondagi Yortiboy oqsoqol bilan Zokirboylarning fikr-mulohazalarini solishtiring, har ikkalasining o‘ziga xos ruhiyatga ega bo‘lganliklariga e’tibor bering va ulardan tegishli xulosalar chiqarib fikr-mulohazalaringizni ayting.

4. Dostonni o‘qib tugatgandan so‘ng o‘zingizga ma’qul bo‘lgan ma’naviy-didaktik o‘and-nasihatlarini qayta xotirlang. Ular asosida mustaqil va ijodiy fikr-mulohazalaringizni daftaringizga yozing.

5. Boysaridagi oriyatlilik va mag‘rurlik, ruhiyatidagi qaysarlik va o‘jarlik, umuman, uning o‘z yurtidan voz kechganlik taqdiri va qismati qanday oqibatlariga olib kelishining sabablarini o‘ylab ko‘ring.

6. Boysarining vatanni qo‘msashi, el-yurtinii sog‘inishi, musofirchilik natijasida chekkan son-sanoqsiz azob-uqubatlari, oxir oqibatda, o‘z xatolariga iqror bo‘lishi bilan bog‘liq o‘rinlarni daftaringizga qayd qiling.

7. Dostonda tasvirlangan obrazlar ro‘yxatini tuzing va ulardan biriga xarakteristika bering.

8. Dostonda berilgan didaktik o‘git-nasihatlardan birini tanlang va shu asosda o‘zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.

9. Sizga yoqqan epik obrazlar tasviri yuzasidan ixcham insho yozing.

“Alpomish”da oila sha’ni, or-nomusi va millat birligi g‘oyasi yetakchi o‘rinda turadi. Shu bosh g‘oya zaminida xalq baxshilari yurt osoyishtaligi, obodligi va taraqqiyotini yoritadi: Vatanni sevish va e’zozlash namunasini zamondoshlariga, kelgusi yosh avlod vakillariga yuqtiradi. Ona diyorning qadriga yetish, uning kamoloti, gullab-yashnashi, osoyishtaligi uchun qayg‘urish fazilatlarini shakllantiradi. «Bu mumtoz asarda tarix to‘fonlaridan hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o‘zligini doimo saqlagan el-yurtimiz bag‘rikenglik, matonat, oliyjanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o‘z ifodasini topgan. Shu bois Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamizni qo‘riqlashga, do‘sti yorimizni, or-

nomusimizni ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi»⁸.

Ajdodlarimiz xalq og'zaki ijodi asarlarida har bir yosh avlodni ilm olishga, ilmi bo'lishga chaqirib, boshqalarga har tomonlama namuna bo'la oladigan ma'naviy yetuk, hunarli, kasbkorli farzandlar bo'lishini ta'kidlaganlar.

«Alpomish» dostonida oiladan, urug'dan ajralish vatandan, elidan ayrilish ekanligi, bu judolikning epik qahramonlarga keltirgan qancha-qancha azob-uqubatlari va kulfatlari chuqur ruhiy holatlarda o'z aksini topgan. Alpomish va Barchinning, ularni qurshab turgan el-yurtning o'zaro munosabatlari, xatti-harakatlari, tutumlari, qarashlari juda katta o'rnakdir. Ammo ularni o'z o'rnini bilan hozirgi yoshlar ongi va qalbiga singdirish, shu yo'l orqali yuksak ma'naviyatli inson tarbiyasiga daxldor ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishiga imkoniyat yaratish adabiy mashg'ulotlarning, faqat adabiyot emas, balki barcha o'quv predmetlarini o'rganish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biridir.

Shu o'rinda yana bir ta'kidni eslatmoqchimiz: komil insonni tarbiyalashda ota-onani ibrat qilib ko'rsatish – milliy udum va qadriyat ekanligi, umuman, oila ma'naviyati va sog'lom turmush tarzining xalq dostonlaridagi talqinlarini maktab o'quvchilariga alohida o'rgatish; bu haqdagi kuzatishlarni ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy tahlil darslarini tashkil etishda izlanish va ijodkorlikka yo'llovchi ilg'or ta'lim metodi hamda usullaridan foydalanish natijasida zarur nazariy tushunchalar va malakalar shakllantiriladi. Darsning samaradorlik darajasini esa o'qituvchining bilimi, ijodkorlik qobiliyati, darsni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishdagi mahorati belgilaydi. Zotan, o'quvchining badiiyat olamiga mehrini, badiiy ijod namunalaridan hayratlanish hissini uyg'ota olgan o'qituvchi faoliyatigina samarali yakunlanadi.

⁸ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, «Ma'naviyat», 2008. 33-bet

II bob. Adabiyot darslarida xalq dostonlarini o‘rganishning samarali usullari va innovatsion pedagogik texnologiyalari

2.1. Adabiyot darslarida “Alpomish” dostonining ma’rifiy va madaniy ahamiyatini o‘quvchilarga o‘rgatishning o‘ziga xos usullari

“Alpomish”- qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatan’arvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqazosi bilan bo‘linib ketgan qadimiy bir o‘zbek urug‘ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g‘oyalari, uning qahramonona shon-shuxrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan. Shuning uchun ham O‘zbekiston Res‘ublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov dostoniga yuqori baho berib, shunday degan edi:

“Alpomish”-o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlaridan avlodlarga o‘tkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir... “Alpomish” dostoni bizga inson’arvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas qabrlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi”.

“Alpomish” dostoni uchun dastyrdagi 5 soat dars ajratilgan.

- 1.“Alpomish” dostoni haqida
- 2.Dostonda o‘zbek milliy ruhiyati va urf-odatlarini dasturi
- 3.Asarning til xususiyatlari
- 4.Dostonda qo‘llanilgan tasvir unsurlari
- 5.”Alpomish” dostonida mardlik, sadoqat, ezgulik, iymonga e’tiqod fazilatlarini.

Birinchi dars.

Mavzu: “Alpomish” dostoni haqida ma’lumot.

Darsning maqsadi: O‘quvchilarda bilim ko‘nikma va malakalarini hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O‘quvchilarning dunyoqarashini ya’ni ekologik dunyoqarashini shakllantirish

Darsning ta’limiy maqsadi: O‘quvchilarga mavzu yuzasidan tushuncha berish.

Darsning turi: An’anaviy, aralash

Dars jihozi: “Alpomish” ning katta surati, “Alpomish” kitobi (1-2 kitobi).

Darsning borishi:

- 1.O‘quvchilar bilan salomlashish
- 2.Sinf xonasini ko‘zdan kechirish
- 3.Davomatni aniqlash
- 4.Uyga vazifani so‘rash
- 5.O‘tilgan darsni mustahkamlash
- 6.Savol-javob, qisqa ochiq test o‘tkazish
- 7.Yangi mavzu bayoni
- 8.Yangi mavzuni mustahkamlash
- 9.Savol-javob
- 10.Uyga vazifa berish
- 11.O‘quvchilarni izohli baholash
- 12.O‘quvchilarni rag‘batlantirish
- 13.O‘quvchilar bilan xayrlashish.

Bundan ming yillar avval xalq baxshilari tomonidan og‘zaki ravishda yaratilgan hamda bizgacha kuylab kelingan bu doston o‘zbek-qo‘ng‘irot urug‘i boshliqlari aka-uka Boybo‘ri va Bosqarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda Hakimbek va Barchinning ajoyib-g‘aroyib holatlarida tug‘ilishi, Hakimbekni bahodirono yoshligi va birinchi bor ‘ahlavonlik ko‘rsatishi, Boysaraning Boybo‘ridan arazlab, qalmoq eliga ko‘chishi, qahramonning yorini olib kelishi uchun o‘zga yurtga safari va qalmoq alpi Qorajon bilan do‘stlashishi, raqiblari qalmoq alplari bilan yonma-yon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va Barchinni olib o‘z eliga qaytishi, qaynotasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, yetti yil zindonda qolishi, asirlikdan oti Boychibor

yordamida qutilib, xotini Barchinning zo‘ravon Ultontoz bilan bo‘layotgan to‘yi ustida o‘z eliga kelishi hamda Ultontozni yengib, o‘z hokimiyatini o‘rtanishi voqealari tasvirlanadi. “Alpomish” dostonining bosh qahramoni Hakimbek – Alpomishdir. U xalqning qahramonlik orzularini o‘zida mujassamlashtirgan, el – yurt farovonligi yo‘lida mardliklar ko‘rsata olgan bahodir, xalq dohasi yaratgan quyma obrazdir.

Qadimgi davrlar va o‘rta asrlarda inson beqiyos kuch-qudrat egasi hisoblangan, chunki o‘sha sharoitda odamlarning ijtimoiy hayoti va tabiati hodisalariga qarshi kurashlarida jismoniy kuch hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham barcha xalqlarning qahramonlik eposlarida har ishga qodir ‘ahlavonlar, yakkama-yakka olishuvlarda g‘olib chiqqan bahodirlar, vahimali ajdar va devlarni mahf eta oladigan botirlar, tish-tirnog‘igacha qurollangan lak-lak dushmanni yolg‘iz o‘zi yenggan alplar siymolari yaratilgan, Alpomish xuddi shunday qahramondir.

Dostonda Alpomishning kuch-qudrati uning bahodirlik salohiyatini tasvirlashga alohida e‘tibor berilgan. U yetti yoshida bobosi Alpinbiydan qolgan o‘n to‘rt botmonlik sari yoydan o‘tib, Asqar tog‘ining cho‘qqichini uchirib yuborganligi uchun ham alp ataladi.

Yakkama – yakka olishuvda Qultoy va Qorajondan g‘olib chiqadi. Uning kuch qudrati Barchin shartlarini bajarishda, qalmoq alplari bilan kurashda, ayniqsa, yorqin namayon bo‘ladi.

Doston maishiy hayot detallariga boyligi, real e‘izodlarni keng qamrab olganligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, yetti baxshi yetti yillik tutqinlikdan keyin Alpomishning o‘z yurtiga qaytishida uni qarindoshlari, cho‘ponlar, yilqichilar, karvonlar, turli toifadagi kishilar bilan uchrashtirish orqali mamlakatdagi ahvol bilan tanishtiradi, odamlarning qahramonga va uning raqibi Ultontozga munosabatini yaqqol gavdalantiradi. Bu lavhalar Alpomishni ideal qahramon va oddiy inson sifatida har jihatdan xarakterlab beradi. Yo‘ldagi uchrashuvlarda Ultontozning zo‘rlik bilan Barchinni olish uchun to‘y qilayotganini bilgan Alpomish Qultoy qiyofasida to‘yxonaga keladi. To‘yxonada Alpomish

Ultontoz tomonidan kamsitilgan va o'g'li hajrida alam tortayotgan ota-onasiga hamdardlik qiladi, haqoratlangan o'g'li Yodgorning boshini silaydi, Ultontozga xushomatgo'ylik qilgan bakovul va oshpazlarning ta'zirini beradi, o'zining kuch-qudratini, Barchinga hamda oilasiga sodiqligini yana bir bor namoyish etadi.

O'zbek xalq dostonlari orasida "Alpomish" qahramonlik eposi baxshilar repertuaridan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, u haqda ko'p tadqiqotlar amalga oshirilgan, doston har jihatdan asosli va ilmiy tahlil etilgani ma'lum. Ayniqsa, dostonning 1000 yilligini nishonlash haqida respublikamiz hukumatining 1998 yil 13 yanvardagi tarixiy qarori nafaqat qahramonlik eposimizni o'rganishda, balki folklorshunoslikning keyingi rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu qaror tufayli "Alpomish" dostonining eng mukammal varianti hisoblangan Fozil Yo'ldosh o'g'li nusxasi ilk bor to'liq holda va akademik nashrda o'zbek va rus tillarida bosmadan chiqdi. Ayni 'aytda, dostonning Berdi baxshi, Saidmurod Panoh o'g'li, Xushvakt Mardonaqul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Ergash Jumanbulbul va Po'ltan shoir variantlari ham o'kuvchilarga yetkazildi. Qora baxshi Umirov, Abdunazar Poyonov, Qahhor va Abdumurod Rahimovlardan yangi variantlari yozib olindi. Birinchi marta bu o'lmas ma'naviy obidamiz asosida multfilm, hujjatli film va badiiy filmlar yaratildi.

Ma'lumki, doston bayramiga tayyorgarlik boshlanguncha ilmiy jamoatchilik va keng xalq ommasi "Alpomish" turkumiga doir ikki dostonni -"Alpomish" va "Yodgor"ni bilishardi. Doston 1000 yilligi arafasida esa "Alpomish" turkumi doirasi kengayib, unga "Qo'ng'iro't", "Beva Barchin" yoxud "Barchin bekach", "Qaldirg'och", "Shomurod", "Yo'lchibek yoxud Xudoyor", "Hurso'na", "Qo'ng'irboy" singari dostonlar qo'shildi. Aslida bunday dostonlar (faqat "Beva Barchin"ni mustasno etganda) yo'k va bo'lmagan. Ular asosan Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, Chori baxshi Umirov va Qahhor baxshi Rahimovlarning "ijodiy mahsuli", an'anaviy dostonlardagi qoliplar, epik o'rinlar, tayyor misralar, doimiy tasviriy vositalardan foydalanib yaratilgan

yasama, qo‘polroq aytganda, soxta dostonlardir. Bu haqda taniqli folklorshunoslar T.Mirzayev va Sh.Turdimov bizga asosli va to‘g‘ri fikr bildirishgan⁹.

Biz shu baxshilar re‘ertuarida nomi qayd etilgan va ular: "Bu dostonlar "Alpomish" turkumiga mansub, ajdodlar yaratgan va bizgacha yetib kelgan", - deb maydonga chiqquncha, o‘ttiz yil Qashqadaryo-Surxondaryo viloyatlari, Tojikiston va Turkmanistonning o‘zbeklar istiqomat qiladigan qishloq va ovullarini qayta-qayta kezib, o‘nlab keksa ustoz baxshilar re‘ertuarini o‘rganib, bu dostonlarga duch kelmagandik. Shuningdek, bizgacha va bizdan so‘ng izlanish olib borgan biror folklorshunos bu dostonlar haqida aqalli kundaliklarida ham qayd etmagan. Hatto Janubiy O‘zbekiston dostonchiligining eng iqtidorli, re‘ertuarida 70 dan oshiq doston bo‘lgan Qodir baxshi Rahimov ham biror marta yuqorida nomi keltirilgan ("Beva Barchin" mustasno) dostonlarni aytmagan. "Alpomish"ning Janubiy O‘zbekiston baxshilari variantlarida e‘ik qahramonning Toychaxonning qizi Oytovkaga uylangani va zindondan ozod bo‘lib, yurtiga Oytovkani ham olib qaytayotganda, Oqsuv daryosining bo‘yida Oytovkaning ko‘zi yorib, o‘g‘il farzand tug‘ilgani haqida qayd kilingan. Ammo boshqa hech bir o‘rinda, hatto "Alpomish" dostonidagi voqealar davomida, barcha urug‘-aymoq jam bo‘lganda ham, turkumning davomi "Yodgor" dostonida ham na Oytovka, na farzandi tilga olinadi. Bizningcha, baxshilar Alpomishning ikkinchi marta uylanishi va farzand ko‘rishini e‘ik qahramonning so‘zida sobitligini ta’kidlash uchungina kiritgan. Chunki epik qahramon Oytovkaning: "Zindondan qutqazsam, kimim bo‘lasan?" - degan savoliga, "Ering bo‘laman", - deb javob «aytgandan so‘nggina qiz "Alpomish" chohigacha lahm qazgan va uchrashuvga borib turgan, aynan unga tegish uchun zindondan ozod qilishga ko‘maklashgan edi.

Ammo folklorshunoslarning "Alpomish" turkumiga nisbat berilgan va yozib olingan dostonlarga bir xil salbiy munosabat bildirishi ham to‘g‘ri emas.¹⁰ N.Ochilov o‘z izlanishlarida mavzuni Qodir baxshi repertuari misolida yoritishi lozim bo‘lgani holda, asosiy diqqat-e‘tiborini 60-80-yillarga ham, Qodir baxshiga ham emas, 90-yillardan keyin

⁹ Imomov K, .Mirzayev T, Sarimsoqov B, Safarov O.O‘zbek xalq poetik ijodi.Toshkent, "O‘qituvchi" nashriyoti – 1990 yil

¹⁰ Mirzayev T, O‘zbek xalq ijodi. "Alpomish" dostoni variantlaridagi ba’zi bir xususiyatlari .Toshkent .1997 yil.

yozib olingan dostonlarga va ularning ijrochiyu ijodkorlari Qahhor Rahimov, Roʻzi Qultoʻrayev, Chori Umirov va Chorshanbi Rahmatullayevlar repertuariga karatadi. Aqalli Qodir baxshi Rahimov ijro etgan, magnitofon lentasiga yozilgan "Beva Barchin" dostonini eshitmay, uning Qahhor baxshi Rahimovdan biz yozib olgan varianti asosida hukm chiqaradi. U keltirgan daʼvolar, bildirgan fikrlarning 60-80-yillarga ham, Qodir baxshi reʼertuaridagi variant badiiyatiga ham daxli yoʻq. Chunki Qodir baxshidan anʼanaga amal qilishda, ixchamlik, izchillik, syujetni qiziqarli saqlab turish, kompozitsion yaxlitlik va badiiyatda Janubiy Oʻzbekiston baxshilaridan hech kim unga tenglasha olgan emas. Fikrimizga ming-ming sahifalardan iborat qoʻlyozmalar asos boʻla oladi.

Haqiqatdan ham, "Beva Barchin" "Alpomish" dostonining ikkinchi qismi syujeti yoʻnalishida yaratilgan. Ammo shu qismning aynan takrori emas. Bu variantning yuzaga kelishi XX asr boshlaridagi ijtimoiy-maʼnaviy hayot bilan bogʻliq. Dostonning ikkinchi qismi "Beva Barchin" deb atalishiga sabab Qorajonning bir xalta suyakni Qalmoqdan olib kelib "Alpomish oʻlibdi", degan gaʼ tarqatishi va qarindosh-urugʻlarning suyakni dafn etishidir. Shundan soʻng Barchinni beva, tul deb atay boshlaydilar.

1. "Alpomish" hajman katta boʻlganidan bir kechada aytib tugatish imkoni yoʻq va keksa, anʼanani yaxshi bilgan baxshilar "hakkalatib" voqealarni qisqartirib) aytishga koʻnikmagan edi.

2. Tinglovchilar auditoriyasi uchun dostonning ikkinchi qismi voqealarga boy va qiziqarliroq edi. Aynan shu qismda diyonat va xiyonat. yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat kengroq yoritilgan.

3. Ikkinchi qism baxshi oʻz mahoratini bor imkoniyatlarini ishga solishga (auditoriyadagilarni oʻylatishga, yigʻlatishga, kuldirishga) imkon berardi.

4. Mansabdan, mavqeʼdan ayrilgan kishilar, boshiga ish tushgan, kulfatga duchor boʻlgan qarindoshlar ruhiyati, doʻstga xiyonatkor qarindoshlar, yaqinlar, ogʻaynilar munosabati shu qismda aks etgandi.

5. Shu qismdagina beva ayolning boshiga tushadigan kulfatlar va uning sadoqatini koʻrsatish mumkin edi.

6. Alohida olganda ham qaygʻudoshlar, gʻamdagilar diliga malham hazil-

mutoyiba bilan kulgi, shodlik ulashadigan e'izodlar o'rinlarni qisqa fursatlik, kichik yo katta davralarda aytib, tinglovchi ruhiyatiga ta'sir qilishni baxshilar bilardi.

7. Asosiy sabablardan yana biri esa, "Alpomish"dek ulkan eposni har qancha hakkalatib (sakratib, voqealarni qisqartirib) aytishga harakat qilmasin, buning iloji bo'lmagan, ya'ni doston voqealarini shomdan tonggacha aytib tugatish imkoni yo'qligidan, baxshilar uning bir qismini nisbatan to'liqroq aytishga yo'l izlab to'ganlar. Janubiy O'zbekiston dostonchiligida "Nurali" turkumidagi va boshqa bir necha dostonlar shu yo'l bilan ommalashgan va baxshilar re'ertuaridan o'rin olgan.

Qashqadaryo-Surxondaryo baxshilari ijodga ilhom berar lahzalarni o'zlarining mavqei, obro'si keladigan onlarni aslo xayoldan chiqarmagan. Shu bois ham davra kayfiyatiga ko'ra, u yoxud bu o'rinlarni kengaytirish auditoriya qiziqishidan kelib chiqib, doston syujetiga o'zgarishlar kiritishdan qo'rqmaganlar. Ana shunday ijodiy jasorat, tinglovchi kayfiyati, istak-xohishiga ko'ra, izlanish tufayli "Kelinoy", "Ollanazar Olchinbek", "Yozi bilan Zebo", "Oychinor" dostonlari xalqimizning o'lmas madaniy obidasi sifatida qolganiga hech kim raddiya bildirolmas.

Bu dostonlar XIX asrning oxirida to'liq bo'lmagan holda aytila boshlagan bo'lsa-da, ammo XX asrdagi iqtidorli baxshilarning xizmati evaziga, voqelik xalqqa (tinglovchiga) manzur bo'lganidan qiziqarli syujet va yaxlit kom'ozitsiyaga ega asar sifatida shakllandi. Masalan, tarixiy dostonlarning yaxshi namunasi tarzida folklorshunoslar tomonidan baholangan "Oychinor" dostoni Qodir baxshi Rahimov mahorati tufayli yuzaga kelgan. Garchi aytuvchi bolaligida bobosi Turdi shoirdan eshitganini ta'kidlasa-da, keyinchalik Dehqonobod va Boysun rayonlarida keng tarqalgan Bobur haqidagi rivoyatlarni ko'ra eshitadi. Xususan, yigitlik davrida Boysunning Sho'rob qishlog'ida doston syujetiga mos keladigan rivoyatni eshitgach, uni doston shaklida aytib, hozir biz bilgan variantni yaratadi. Uzoq kuzatishlarda Bobur haqida rivoyatlar, afsonalarga ko'p duch kelgan holda, boshqa biror baxshi repertuarida ulug' shoir va sarkarda haqidagi dostonga duch

kelmadik. Demak, xalq epik voqelikni bilmasa, unga qiziqmasa, o'sha dostonni talab etmaydi. Baxshi esa auditoriya talab qilmagan dostonni tinglamaydi. Ammo baxshi mahorati bilan epik an'analar darajasida aytilgan doston adabiy manba sifatida yashab qola oladi. "Beva Barchin" dostonining Qodir baxshi variantiga ham shu xilda baho berish kerak. Demak, "Alpomish" turkumi "Alpomish", "Yodgor" dostonning ikkinchi qismi voqealarini kengaytirish asosida keyingi davrlarda yaratilgan va ma'lum ma'noda mustaqillik kasb eta olgan "Beva Barchin" dostonlaridan tarkib topgan.

Dostonning Alpomishdan keyingi yetakchi obrazlaridan biri Barchindir. U o'zbek eposida har tomonlama mukammal ishlangan ayol obrazi hisoblanadi. Dushmanlarning "qirq mingini biri deb sanab qirishga" tayyor turgan jasur Barchin siymosida qahramonlik dostonlariga xos alp qiz haqidagi an'anaviy tushuncha ham o'z ifodasini to'gan.

Barchin faqat jasur va dovyurak bo'lib qolmay unga uylanmoqchi bo'lgan yigitdan ham salohiyat va bahodirlikni talab etadi. Bu jihatdan uning Alpomish va to'qson alp alohida to'rt shart (yoy tortish, ming qadamdan tanga pulni urish, poyga kurashda to'qson alpni yiqish) qo'yishi xarakterlidir. Qahramonlik va mardlikni tarannum etuvchi Barchin shartlari dostonda badiiy go'zal tasvirlangan. Fozil shoir xalqning boy ijodiy tajribasini, turmushdagi eng mayda ikir-chikirlarni ham juda yaxshi biladi, har bir detalni chuqur mushohada qiladi hamda o'z o'rnida qo'llaydi.

Bu shartlarning bajarilishida Barchin bevosita bo'lmasa-da, bilvosita ishtirok etdi. U kurashda Ko'kaldoshni yiqitishga qiynalgan Alpomishga ma'naviy madad beradi. yoki, 'oygada Ko'kaldoshning oti Ko'kdo'nondan o'za olmagan Boychibor Barchinning "qurt-hayt" degan ovozi jshitishi bilan marraga birinchi bo'lib yetib keladi.

Buni to'lqinlanmay o'qish yoki eshitish mumkin emas. Iliq lirizm, chuqur ichki hayajon Alpomish va uning jangovor yo'ldoshi Boychiborga samimiyat bilan to'lib toshgan Barchinning bu manalogi yuksak badiiy kuch bilan jaranglaydi.

Dostonda tilga olingan har bir odam yodingizda qoladi. Masalan, Qayqubodni olaylik. U Alpomishni oq ko'ngil, shu bilan birga qo'lidan hamma ish keladigan yordamchisidir. Barchinni izlab Qalmoq yurtiga birinchi bor borayotganida Alpomish u bilan uchrashadi. Cho'pon Qayqubod o'zini Boysarining oilasini teng – huquqli a'zosi deb biladi.

Qayqubod qiyin paytda Alpomishga yordamga kelib, uning asirlikdan qutilishiga yordam bergan. Alpomish zindondan chiqib, zolim va adolatsiz To'ychixon hamda uning qo'shnini tor-mor keltirib cho'pon do'sti Qayqubodni qalmoq yurtiga xon qilib ko'taradi, sevganiga uylantiradi. Qayqubod obrazida xalqimizning adolatli shoh haqidagi orzulari, demokratik va gumanistik o'y fikrlarga mujassamlashganini ko'ramiz.

“Alpomish” dostoni badiiy barkamol asar unda o'zbek xalqi she'riy dohosining buyuk qudrati to'la namayon bo'ladi. “Alpomish”da boshqa dostonlarga nisbatan mubolag'aviy uslub ustunlik qiladi.

Tikilsam quriydi daryoning qumi

Na'ra tortsam, qular qo'rg'onning ishi.

Bunday mubolag'aviy tasvir changallasa tog'ni talqon qila oladigan, kuch-qudratga, kallasi-kapday, tanasi tepaday qalmoq alplaridan ustun turgan Alpomishning azamatligini sifatlab bera oladi.

“Alpomish” dostoni 1922-yildan beri o'zbek folklorshunosligi tomonidan xalq baxshilari og'zidan yozib olib kelingan. Hozirgacha uning qirqdan ortiq variantlari yozib olingan.

“Alpomish” dostoni “Alpamis”, “Alp Manash” nomlarida qoraqalpoq, qozoq, oltoy xalqlarida doston holida, “Alpomsho”, “Alpomsho va Barsin siluv” nomlarida tatar va boshqird xalqlari ertaklarida nashr etilgan.

Ikkinchi dars.

Mavzu: “Alpomish” dostonida mardlik, sadoqat, ezgulik, iymonga e'tiqod fazilatlari.

Darsning maqsadi: O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, bilim

ko'nikma va malaka hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga "Alpomish" dostonini chuqurroq o'rgatish, vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalash

Dars turi: Noan'anaviy (aralash) dars

Dars jihozi: "Alpomish" dostoni

"Alpomish" ning portreti

"Alpomish" dostoniga bag'ishlab chiqarilgan turli maqolalar.

Dars rejasi:

Darsning borishi:

O'n olti urug' Qo'ng'iroq elida Dobonboy degan o'tdi. Dobonbiyning o'g'li Alpinbiy edi. Alpinbiyning o'g'illari aka-uka Boybo'ri va Boysarilar ancha yoshga borgan bo'lsalar ham farzandsiz edilar. Buning uchun ularni bir to'yda izza qiladilar. Aka-uka shoxmardon 'irining qabrida qirq kun tunab, farzand tilaydi. Tilaklari vojib bo'lib, Boybo'ri bir o'g'il va bir qiz, ukasi Boysari esa bir qiz ko'radi. Shuning uchun aka-uka qirq kecha, qirq kunduz to'y beradi. To'yning oxirgi kuni Shaximardon piri qalandar qiyofasida kelib Boybo'rining o'g'li va qiziga Hakimbek va Qaldirg'och Boysarining qiziga Barchin deb ot qo'yadi hamda Hakimbek va Barchinni bir-biriga atashtirib duo qiladi.

Bolalar o'sib uch yoshga yetgach, maktabga o'qishga borishadi va yetti yoshgacha o'qib, xat-savodli bo'lishadi. Shunda Boybo'ri "O'g'limga shoxlik sipohlik ilmini o'rgatayin" deb, Boysari esa "Qizimga qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin", deb maktabdan chiqarib oladi.

Hakimbek yetti yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli, yoyni ko'rsatib, tortgani uchun Alpomish ataldi.

Boybo'ri Boysaridan To'ychixonning to'qson alpi bor edi. Shu alplar Barchinni olmoqchi bo'ldilar. Qiz ulardan olti oyga muhlat so'rab, Alpomishga xabar yubordi. Yigit singlisi Qaldirg'ochning qistovi bilan Barchinni qalmoqlardan ajratib olish uchun safarga otlandi. Yo'lda Alpomish cho'ponlarning

qo'shonasida yotib tush ko'rdi. Shu kechasi to'qson alpning biri Qorajon ham tush ko'rib, Alpomish bilan g'oyibona do'st bo'ladi. Murod tog'ida Alpomish bilan Qorajon uchrashib, Qorajon Alpomish nomidan Barchinga sovchi bo'lib boradi.

Shunda Barchin "Alpomish kelsa, kelibdi, Alpomish keldi, deb Alpomishning etagini tutib keta beraymi?. Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonda ot soladi. Otni o'zdirgan odam oladi.

Mening to'rt shartim bor, shul to'rt shartimni qilgan kishiga tegaman, xoh Alpomish qilib olsin, xoh qalmoqlarning biri qilib olsin, shul so'zimni xon to'ramga aytib bor" dedi.

Qorajon Barchinni oldidan kelayotganida yo'ldan to'qson alplarning zo'ri Ko'kaldosh turib aytdi: "Qorajon, qayoqdan kelayamsan?"

Qorajon aytdi: "O'zbekning qiznikidan kelayapman"

- O'zbekning qizining muhlati bitdi, nima javob qildi?

- O'zbekning qizini aytgan so'zi shul bo'ldi: "Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman, kurashda alplarning barini yiqqaniga tegaman, yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman, ming qadamdan tanga-pulni urgan qarag'ay merganga tegaman.

Ko'kaldosh o'zining sinchisiga Boychiborni ta'riflab berishini so'radi. Sinchi Boychiborni Ko'kaldoshga ta'riflab berdi.

Qorajon o'zaro janjallashmay, Barchin shartlarini bajarishga kirishish kerakligini aytdi. Bu hammaga ma'qul bo'ldi. 'oygaga qalmoqlarning 'odshosidan uch ot keldi. Biri olapocha to'riq ot, biri sha'aq ot, biri saman ot. Hammasi bo'lib to'rt yuz to'qson to'qqiz ot to'plandi.

Alpomishning Boychibor oti bilan besh yuz ot bo'ldi. poygaga Alpomish nomidan Qorajon jo'nadi, Boboxon tog'iga yetgach, poyga boshida qalmoqlar Qorajon bilan Boychiborni boylab, o'zlari jo'nab ketdilar. Qorajon boylovli yotib, avliyo anbiyolarga yalinib yolvordi. Shunda Alpomishning Rajabxo'ja eshon degan piri kelib, boylovdan ozod qildi. Qorajon kim yechganini bilmay qoldi.

Yoy tortish, ming qadamdan tanga pulini urish va kurash shartlarini bajarishda Alpomish g'olib keldi.

Barcha shartlarni bajargan Alpomishga Barchinni nikohlaydi. Alpomish Barchinni olib o'z yurtiga qaytadi. Ko'ch ortidan To'ychixon qo'shin yuboradi. Ikki o'rtadagi jangda ham Alpomish g'olib chiqadi. Eson omon o'z yurtiga qaytadi. Amakisi va qayinotasi Boysari Qalmoq elida qoladi.

To'ychixon podsho Boysarining molu mulkini tortib oladi, o'zini cho'on qilib qo'yadi. Karvonlardan biri xabarni eshitgan Alpomish amakisini qutqarish uchun yana qalmoq eliga safar qiladi. Ammo Surhayil kam'ir hiylasi bilan 7 yil zindonda qolib ketadi. Oti yordamida asirlikdan qutilib, o'z eliga keladi. Bu paytda qahramonning o'gay ukasi Ultontoz Qo'ng'irotda hokimiyatni qo'lga olib, Barchinga uylanmoqchi bo'lib to'y bermoqda edi. Alpomish Qultoy qiyofasida uyga kelib, dushmanlarni yengadi.

Qalmoqda qolgan Boysari ham yetib keladi. Bo'lingan urug' qayta birlashib, Alpomish murod-maqсадiga yetadi.

Birinchi dars uchun test.

1.Nega Barchinning otasi Boysari boshqa mamlakatlarga ko'chib ketdi?

- A) Dashtlarida ot qolmaganligi uchun
- B) Boybo'ri zokat talab qilgani uchun
- S) Alpomish Barchinni sevib qolgani uchun

2.Ultontoz kim?

- A) Alpomishning jiyani
- B) Alpomishning do'sti
- S) Alpomishning o'gay ukasi

3.Alpomish dostonida qanday badiiy san'at ko'p ishlatilgan?

- A) Mubolag'a
- B) Ibora
- S) To'g'ri javob yo'q

4.Barchin qalmoqlardan necha oyga muxlat so'raydi?

- A) 4 oyga

B) 6 oyga

S) 7 oyga

5.Barchin qalmoqlarga nechta shart beradi?

A) 4 ta

B) 10 ta

S) 3 ta

6."Alpomish" dostoni nechanchi yildan beri o'zbek folklorshunoslari tomonidan xalq baxshilari og'zidan yozib kelinmoqda?

A) 1920 yildan

B) 1922 yildan

S) 1919 yildan

7. Alpomish Suhayil kam'irning hiylasi bilan necha yil zindonda qolib ketadi?

A) 10 yil

B) 8 yil

S) 7 yil

Ikkinchi darsga test

1.Folklor termini qaysi tildan olingan va qanday ma'noni bildiradi?

A) Lotincha ertak degan ma'noda

B) Inglizcha so'zdan olinib, Xalq donoligi degan ma'noni bildiradi

S) Fransuzcha so'z bo'lib, doston turlari

2.Folklorshunoslar tomonidan o'zbek xalq baxshilarini aytib turishi asosida qancha doston yozib olingan?

A) 150 dan ortiq

B) 40 ta

S) 60 ta

3."Alpomish" qanday doston turiga kiradi?

A) Tarixiy doston

B) Romantik doston

S) Qahramonlik doston

4.Doston qanday cholg‘u asbobi orqali kuylanadi?

- A) Dutor orqali kuylanadi
- B) Tanbur va nay orqali
- S) Do‘mbira orqali kuylanadi

5.Barchinni Boychiborga qarab so‘ylab turgani

Senga muhtoj turar qo‘ng‘irot palqoi

Yonida mo‘tabar menday o‘lgani

Buo tekkan qo‘ng‘irot elining hayvoni

Boybo‘ri bobomning moli, qurru hayt

Mulla Hakim yorimning moli, qurru hayt.

Ushbu parcha qaysi shoir baxshilar repertuaridan?

- A) Berdi baxshi variantidan
- B) Saidmurod panoh o‘g‘li variantidan
- S) To‘g‘ri javob yo‘q

6.”Alpomish” dostonidagi qaysi qahramon sizga yoqdi va qaysi qahramonimizni salbiy obraz deb hisoblaysiz...?

(Yozma javob bering).

Savol va topshiriqlar

- 1.”Alpomish” dostonini o‘qib chiqing va mazmunini so‘zlab bering.
- 2.Nega Barchinning otasi Boysari boshqa mamlakatga ko‘chib ketadi?
- 3.Barchinning shartlar tasvirlangan parchani yod oling.
- 4.”Alpomish” dostoni qachon yaratilgan?
- 5.Doston qaysi baxshilardan yozib olingan?
- 6.Poygada qatnashgan otlar ta’rifini ayting
- 7.Alpomishning oti Boychibor qanday xususiyatga ega?
- 8.Ko‘kqashqa poygaga oldinda ketgan bo‘lsa ham, nega Boychibordan o‘za olmadi? Uning kamchiligi nimada?
- 9.Fozil Shoir va Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlaridagi Boychibor ta’rifini ayting?
- 10.Fozil shoir va Berdi baxshi variantlaridagi badiiy yuksaklikni nimalarda

ko'rasiz?

- 11."Doston" so'zi qanday ma'noni ifodalaydi?
- 12.Xalq dostonlariga ta'rif bering?
- 13.O'zbek xalq dostonlarining qanday turlari bor?
- 14.Dostonlarning shakliy tuzilishini so'zlab bering?
- 15.Doston boshlanmasi nimalarni ifodalaydi?
- 16.Doston matnida uchragan ma'nosi tushunarli so'zlarni lug'at daftaringizga yozing va ma'nosini to'ib yozing.

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatlarini davrlar aro ifodalab mazmun va shakl jihatidan, goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar tarixiga o'ralgan qahramonlik voqealarining o'ziga xos badiiy ifodasidir.

2.2. Ta'lim bosqichlarida xalq dostonlarini o'rganishda samarali metodlardan foydalanish

Odatda muammoli ta'limning asl mohiyatini ma'lum (o'quvchilar oldindan biladigan) va noma'lum (o'quvchilar uchun qorong'i bo'lgan) ma'lumotlar o'rtasidagi ziddiyatlarni anglash tashkil etadi. Muammoli metod asosida tushunish va tushuntirish uchun ilgarigi bilimlar yetarli bo'lmagan, o'quvchiga ma'lum bilim, o'quv va ko'nikma, yangi dalil, hodisalar o'rtasida ba'zan ochiq, ba'zan yashirin ziddiyatni ochish asosiy vazifa bo'lib turadi. Bu ancha jiddiylik kasb etuvchi o'quv muammosi hisoblanadi.

Fikrimizcha, muammoli ta'lim o'quvchilar oldiga muammoli savol yoki topshiriqlar qo'yish, muammoli vaziyat yaratish, muammolarni mustaqil hal etish, izlanishga o'quvchilarni jalb qilish, yakuniy xulosalar chiqarish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Har bir ertak, rivoya, maqol, topishmoq, tez aytishlar

o'kuvchilarni mana shunday xulosalarga yetaklashi kerak. Ular o'zbek xalqiga aloqador bo'lgan har bir narsaga o'zini ham daxldor bilishi, ulardagi yaxshi, maqtoqli narsalardan faxrlanishi, aksincha shu millat uchun nomunosib bo'lgan xatti-harakatlar, hatto o'y va mulohazalardan ham xijolat chekadigan tuyg'ular egasi bo'lib yetishishlari zarur.

Muammoli ta'limni amalga oshirishda o'qituvchi to'g'ri savol qo'ya bilishi lozim.

Bu har bir hodisaning mohiyatini ilg'ashga uning sababalarini topishga, badiiy asar mantiqini topishga undab turadi. Asar mohiyatini tushunmaslik, mazmun va mantiqdagi mavhumlik o'kuvchining asarni suymaslikka undab turadi. Aksincha holatda esa uning xulosalari ham asar mantiqqa aloqador tarzda shakllanadi. Demak, o'kuvchining badiiy asarni suymasligiga barham beriladi.

Nazarimizda bu jarayonda:

- A) folg'lor asarlarini ifodali o'qish;
- B) uning mohiyatini anglashga imkon beradigan savollar tizimini ishlab chiqish va ular ustida ishlash;
- V) asardagi voqealar, badiiy detallarning o'rni va ahamiyatiga oid suhbatlar o'tkazish yaxshi samara beradi.

Bolada aniq, asosli mulohazalarning paydo bo'lishi undagi loqaydlik va beparvolikning, badiiy asarga nisbatan yuzaki qarashning barham topishiga olib keladi. Aslida adabiyot o'qituvchisi ko'zlagan asosiy marralardan biri ham mana shu. Asar matnini o'qish, uning asl mohiyatini o'rganish, unda aks etgan badiiy olam sirlarini o'zlashtirish, uni badiiy-estetik tamoyillar asosida tahlil qilish, bularning oqibatida esa faqat uning o'zigagina xos bo'lgan munosabatlar tizimini hosil qilish, eng muhimi, har qanday adabiy hodisaga nisbatan o'z nuqtai nazarini shakllantirish, bu nuqtai nazarni o'z dalil-asoslariga tayanib bayon va himoya eta olish, chuqur mantiqiylik va izchillikka tayanib turib muhokama yuritish, kerakli o'rinlarda esa tanqidiy fikr bildirish, asarni yaxlitligicha yoki uning alohida oligan parchalarini estetik jihatdan baholovchi hukm-xulosalar chiqarish darajasiga ko'tariladi. Bularning hammasi o'quvchimizning adabiy-estetik didi va tafakkur tarzining takomillashib borishining asosiy ko'rsatkichlari bo'la oladi.

Bu yerda hamkorlik texnologiyasining o'рни va ahamiyati juda kata ekanligini qayd etish joiz. Albatta, hamkorlik o'qituvchining tashabbusi va rahbarligida bo'lishiga shubha yo'q. Faqat bunda rahbarlik ko'zga ochiq ko'rinmasligi, o'kuvchining tashabbusiga keng yo'l ochish asosiy tamoyil bo'lib qolishi kerak.

Adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirish adabiy asardan, adabiy asar tahlilidan tashqarida yuz bermaydi. Bu bevosita kitob bilan, badiiy asar mutolaasi bilan chambarchas bog'liq holdagina amalga oshiriladi. Demak, bu jarayonda o'kuvchi adabiy asarni, bizning misolimizda esa folg'klar asarlarini bevosita o'qib chiqishi, unda tasvirlangan badiiy voqelikni ijodiy o'zlashtirishi, uning yaxlit va qimlarga ajratilgan holda tasavvur etishi, ulardan tegishli xulosalar chiqarishi, lozim bo'lsa, o'z nuqtai nazarini bildirishi va himoya qilishi kerak bo'ladi. Bu o'z-o'zidan uning og'zaki va yozma nutqini ham sifatiga ta'sir o'tkazadi. Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish asosida:

- a) o'kuvchi badiiy asarni tushunish va his qilishga o'rganadi;
- b) undagi kitobxonlik ko'nikmalari va madaniyati shakllanadi;
- v) badiiy adabiyotda aks etgan hodisalar mohiyatini hayot va badiiyat olami bilan qiyoslash imkoniga ega bo'ladi;
- g) adabiy-nazariy tushunchalarning har bir alohida olingan asarga nisbatan tadbiiq etishdagi o'ziga xostliklarni ilg'ay boradi;
- d) ularda ijodkorlik va mustaqillik xislatlari rivojlanadi.

Har bir mashg'ulotni tashkil etishning shakl va usullari ham bu boradi yaxshi omil bo'ladi. Folg'klar asarlarini tahlil qilishning muayyan maqsad va vazifalari bo'ladi.

Alohida olingan dars bu yaxlit butunlikning faqat bir qismi xolos. Demak, yaxlit butunlik mana shu alohida olingan qismlardan tarkib topib boradi. Biz agar butun nazariy tushunchalarni yaxlit butunlik deb oladigan bo'lsak, har bir darsda uning qismlari shakllanib, butunlikni tiklab borishi kerak. Bunga darsning shakli,

maqsadi vazifasi, metodlari, texnologiyalari, unda qoʻllanadigan barcha didaktik vositalar ham yoʻnaltirilgan boʻladi.

Metodist olimlar S.Dolimov, A.Zunnunov, N.Hotamov, Q.Axmedov, S.Ismatov, T.Boboyev, Q.Yoʻldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, B.Toʻxliyevlar oʻz tadqiqot ishlarida oʻquvchining bilimlarini oʻzlashtirishdagi faolligini oshirishda: suhbat, muammoli taʼlim, izlanish, mustaqil ish singari metodlar imkoniyatlarga boyligini alohida taʼkidlab oʻtganlar.

Pedagog olim A.Tojiyev “Adabiyot darslarida suhbat” nomli qoʻllanmasida suhbatning oʻrni va ahamiyatini qursatib bergan boʻlsa, A.Zunnunov bu borada predmetlar aro aloqalarning imkoniyatlariga urgʻu bergan. S.Dolimov esa matn ustida ishlash va sharhli oʻqishning afzalliklarini qoʻrsatib beradi. B.Toʻxliev ifodali oʻqish bilan birgalikda, ayniqsa, sheʼriy asarlarning yod olinishiga ustuvorlik berilishini maʼqullaydi. M.Mirqoimovada esa har qanday holatda ham oʻquvchilarni badiiy asr tahliliga yoʻllash oʻzini oqlaydi degan qarash yetakchilik qiladi.

Badiiy asarni ifodali oʻqishga oʻrgatish; asarni tahlil qilish jarayonida oʻquvchiga tushuntirish koʻzda tutilgan nazariy tushunchalar mazmuni, meʼyori, maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish; ularni oʻrganishga yoʻnaltirilgan qoʻshimcha savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; shu tizim asosida oʻquvchi oʻzlashtirgan nazariy bilimlar darajasini aniqlab, mustaqil ish turlaridan foydalanish nazariy bilimlarning chuqur oʻzlashtirishga taʼsir koʻrsatadi;

Tahlil davomida oʻqituvchi asarning asosiy, yetakchi badiiy xususiyatlariga oʻquvchilar diqqatini tortishni koʻzda tutadi. Ushbu jarayonda bir qator nazariy tushunchalar ham shakllantirib boriladi.

Dars jarayonida asar tahlilini toʻgʻri tashkil etish, aniq maqsadli usullarni tanlay olish, darsni ilmiy-metodik asosda tashkil etish, oʻquvchilarni tahlilga yoʻllash, namunaviy tahlil darsini oʻtkazish, oʻquvchilarni eng koʻp darajada mustaqil fikrlashga undash – adabiy tahlildan koʻzlanadigan taʼlimiy maqsadlar hisoblanadi. Adabiy tahlil orqali ham oʻquvchilarning estetik didlarini oʻstirish;

ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish va ma'naviy sifatlarini kamol toptirish asosiy muddaodir.

“Alpomish” dostoni personajlari tilini o‘rganishga
oid jadval namunasi

Barchin ruhiyati tasviriga misollar	Alpomishga xos xususiyatlar tasviriga misollar	Qaldirg‘och ruhiyati tasviriga misollar	Ayrim personajlar va epizodlar tasviridan misollar	baxshi nutqidan misollar	Joy va buyumlar tasviriga misollar

Xulosa qilib aytganda, asar mazmunini o‘qib o‘rganish va qahramonlar timsolini tavsiflashga alohida e’tibor qaratiladi. SHu yo‘l bilan birga o‘quvchilarga dasturda belgilangan nazariy tushunchalarni o‘rgatish adabiy tahlil darklarini tashkil etish orqali amalga oshirilsa, samara berishi aniq. Bu borada adabiyot o‘qituvchilari quyidagi metodik talablar va tavsiyalarga amal qilishlari lozim:

1. Badiiy asarni ifodali, ijodiy yoki sharhlab o‘qish usullaridan foydalanib, o‘quvchilarni taassurotlariga tayanib tahlil qilishga yo‘llash mumkin, ayni chog‘da dasturda belgilangan nazariy tushunchalarni tahlil davomida o‘zlashtirish ko‘zda tutilishi kerak.
2. O‘quvchini badiiy asarlarni adabiy-tanqidiy nuqtai nazardan baholashga o‘rgatishda qamrovli tahlil, qiyosiy tahlil, muammoli tahlil kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Adabiy matnga tayanib tahlil qilish vositasida o‘quvchilar qoliplash san’ati, badiiy asar tili, she’riy san’atlar haqidagi nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishlari oson kechadi.
3. Tadqiqot metodi yoki adabiy talqin usullariga tayanib o‘quvchilar badiiy asarning estetik xususiyatlarini o‘zlashtirishga erishadilar; ularda adabiyotshunosga xos malaka kurtaklari shakllanishi mumkin. Ayni chog‘da ular ijodkor yaratgan badiiy olamni idrok eta oladilar, ijodkor shaxsini anglaydilar.
4. Matn asosidagi tahlil vositasida esa o‘quvchilar ijodkor uslubining o‘ziga xos qirralarini aniqlashga, badiiy asar tilini o‘rganish asnosida yozuvchi mahoratiga estetik baho berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada, ularda xilma-

xil asarlarni mustaqil o'qib o'rganish va badiiyat talablari asosida baholash malakasi tarkib topadi.

Yuqori sinflarda adabiy turlar va janrlar haqida muayyan nazariy bilimlarni o'zlashtirgan holdagina o'quvchilar asar janr talablari va imkoniyatlarini to'la tasavvur qilishlari mumkin.

– uslub va mahorat, badiiy asar tili, estetik tahlil tamoyillari, badiiy ijodda an'ana va novatorlik kabi masalalarga oid nazariy bilimlarni o'quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga, estetik did va dunyoqarashiga mos holda singdirib borishga erishish lozim;

– qiyosiy tahlil usulidan ham o'qituvchi unumli foydalanishi mumkin. Bu usul san'atkor yaratgan xilma-xil asarlarni o'zaro qiyoslab o'rganib, ijodining o'sish-o'zgarish bosqichlarini belgilashda, alohida asarlarga qiyosiy jihatdan baho berishda, yozuvchi yoki shoirlar uslublarini o'zaro qiyoslab o'rganishda maqbul usul hisoblanadiki, bu haqda metodist-olimlar M.Mirqosimova, Q. Yo'ldoshevlar maxsus tadqiqot ishida, monografiyalarida so'z yuritishgan.

Ana shunday usullarga tayanib, o'qituvchi folg'klor asarlari imkoniyatlari asosida yaratilgan badiiy obrazlar timsolida qanday epik tafakkur tarzini badiiy aks ettirganliklarini o'quvchilarga tushuntira oladi, deb o'ylaymiz. Natijada, ular folg'klor asarlari yordamida bir qator nazariy bilimlarni (adabiy tur va janrlar, uslub va mahorat, epik qahramon, qahramonning ma'naviy olami, badiiy tasvir vositalari haqidagi) chuqurlashuviga erishadilar.

Xilma-xil janrdagi asarlar matniga tayanib, badiiy xususiyatlarini o'rganish; badiiy asarning barcha qismlari bilan syujet-kompozitsiya unsurlari alohida hamda uzviylikda muayyan badiiy vazifani bajarishini o'quvchiga chuqur tushuntirish; adabiy asar so'z san'atkoriga xos badiiy mahorat ko'zgusi ekanligini asoslashdan iborat. Xususan, she'r tuzilishi, vazni, qofiya tarzi, ohangi, tasviriy vositalar, qahramon qiyofasi, kechinma yo holat zamiridagi ma'nolar tabiat tasviriga jo etilgan kechinmalar mazmun mohiyati adabiy matn asosida tahlil qilingani kabi roman yo qissa matni ham uning badiiy xususiyatlarini o'rganishga asos bo'ladi.

Tahlil davomida yozuvchi uslubi va mahoratini namoyon etuvchi tasviriy manzaralar, ruhiy holatlar, dialoglar yoki epizodlardan, buyumlar tasviriga xos yorqin misollardan o‘rinli foydalanish va o‘quvchining, yozuvchining g‘oyaviy badiiy kontsepsiyasi ularning badiiy vazifasini izohlashga o‘rgatish natijasida ana shunday vositalar orqali yoritilganligi to‘g‘risida aniq tushunchalar shakllantiriladi.

Adabiy matn o‘quvchiga san’atkorning ijodiy tafakkur tarzi, dunyoqarashi, shaxsiy sifatlariga oid muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bois yuqori sinflarda adabiy tahlil va talqin usulidan samarali foydalanilgan holda, o‘quvchilarda nazariy tushunchalar shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy tahlil darslarini tashkil etishda izlanish va ijodkorlikka yo‘llovchi ilg‘or ta’lim metodi hamda usullaridan foydalanish natijasida zarur nazariy tushunchalar va malakalar shakllantiriladi. Darsning samaradorlik darajasini esa o‘qituvchining bilimi, ijodkorlik qobiliyati, darsni ilmiy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishdagi mahorati belgilaydi. Zotan, o‘quvchining badiiyat olamiga mehrini, badiiy ijod namunalaridan hayratlanish hissini uyg‘ota olgan o‘qituvchi faoliyatigina samarali yakunlanadi.

2.3. “Alpomish” dostonini innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o‘rganish

Dasturdagi talablar, odatda, DTS ko‘rsatkichlaridan bir muncha yuqoriroq bo‘ladi. Garchi dastur ko‘rsatmalari barcha uchun bir xilda ifodalangan bo‘lsa-da, og‘zaki ijodning har bir janri, har bir asarga bog‘liq bo‘lgan mavzularni o‘rganishda o‘qituvchining ijodkorligi uchun ham katta maydon mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi.

Bugungi ta’lim jarayoni o‘quvchilarning mavzu va hajmiga ko‘ra rang-barang bo‘lgan janrlardagi badiiyat durdonalari bilan tanishishini nazarda tutadi. Ular o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim bir omil vazifasini ado etadi. Fol’klor asarlari ham o‘quvchilarning

umumiy adabiy ta'limidagi tarkibiy bo'lak sifatida, ularning badiiy-estetik didlarining kamol too'ishi uchun xizmat qiladi.

Ularni o'rganish asosida o'quvchi folg'lor namunalarining ma'rifiy, badiiy-estetik jihatlarini anglab, his etib boradi. Ayniqsa, fol'klordagi o'ziga xos tasvir usullarining, hayotiy qarashlarning amal qilishi ularning mazmun va mohiyatini to'la va to'g'ri idrok etishga zamin hozirlaydi.

Akademik litseylarda «Xalq og'zaki ijodi» degan maxsus kursning mavjudligi esa bu ishning tizimli tarzda amalga oshirish, ancha chuqur va o'uxta bilimlarni berish imkoniyatini kafolatlaydi. Bu kursni o'rganishda O.Madayev va T.Sobitovalar tomonidan yaratilgan "Xalq og'zaki poetik ijodi" darslik-majmuasi nashr qilingan¹¹.

"Alpomish" dostonini o'rganish uchun 4 soat ajratilgan. Bunda o'quvchilar "Alpomish" dostonining kuylangan variantlari, doston matn ustida ishlash, qahramonlarni o'rganish, dostonning badiiy xususiyatlarini o'rganish kabi masalalarga diqqat qaratadilar.

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida interfaol texnologiyalardan foydalanilmoqda. Multimedia o'roektorlar, interfaol sinf taxtalari (doskalar) va o'anellar, videokonferentsaloqa tizimlari, ovozlash tizimlari avval mavjud bo'lgan muammolarning ko'ochiligini hal etishni osonlashtirmoqda. Mazkur texnologiyalar keng qo'llanila boshlagan sohalardan biri ta'lim sohasi (maktablar, institutlar, akademiyalar) sanaladi. Bugungi kunda mavjud texnik imkoniyatlardan ezgu maqsadlar yo'lida to'g'ri foydalanadigan, olam hodisalarini o'rganishga ichki ehtiyoji bor va uning yo'llarini qidiradigan shaxslarni shakllantirish ehtiyoji o'aydo bo'ldi. Axborotlar to'foni og'ushidagi dunyo yoshlarga bilim berish, ularda ma'lum ko'nikma va malakalar shakllantirishning samarali va zamonaviy yo'llarini izlab too'ishni talab qilmoqda.

Ta'limni tashkil etish va yo'lga qo'yish borasidagi shu xil o'zgarishlar keyingi yillarda dunyo miqiyosida tobora keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarni

¹¹ Madayev O, Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. Akademik litseylar uchun darslik-majmua. Toshkent, Sharq, 2001

yuzaga keltirdi. Interaktiv usullar erkin fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan o‘quvchilarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan e‘tiborga loyiqdir. Ta‘lim berishning bu usulida o‘qitish jarayonidagi asosiy ish o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilishi, ular ta‘limning obyekti emas, balki subyekti, ya‘ni xuddi o‘qituvchi singari ijrochisi bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Interfaol metodlarning asosida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatigina emas, balki ta‘lim olayotgan har bir o‘quvchi bilan boshqa o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda didaktik faoliyat ko‘rsatishi turadi. “Interfaol” atamasi lotincha “inter akt” so‘z birikmasidan olingan bo‘lib, “inter” – o‘zaro, birgalikda va “akt” – faoliyat ma‘nolarini anglatadi¹². Demak, interfaol metodlar ta‘lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishlarini tashkil etishni ko‘zda tutadi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligi, erkin fikrlashi, mustaqil izlanishi, o‘zlashtiriladigan ma‘lumotlarga ijodiy yondashishiga tayanadi.

Interfaol metodlar ta‘lim jarayonida qatnashayotgan har bitta o‘quvchining faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qitilmaydi, balki ularning o‘zlari o‘qituvchi bilan birgalikda muayyan yo‘nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishadi. Bu hol bolalarda erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag‘bat o‘aydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta‘lim jarayoni qatnashchilari o‘zaro bemalol tortishadilar, o‘quv materialini buyurilganiday emas, balki o‘zlari xohlaganiday erkin o‘zlashtiradilar. SHuni alohida ta‘kidlash kerakki, interaktiv metodlarning eng asosiy belgilari: o‘quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga urinishlari va ta‘lim jarayoni qatnashchilarining, albatta, kichik guruhlariga bo‘lingan holda ishlashlaridir. O‘quv topshiriqlarining alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a‘zolariga berilishi o‘quvchilarda jamoa tuyg‘usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

“Texnologiya” soʻzi yunoncha boʻlib, “texne” – mahorat, sanʼat, “logos” – tushuncha, taʼlimot maʼnolarini anglatadi. Taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatini oʻzaro uzviylikda tashkil etish; taʼlim tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni oʻzaro muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqichligini taʼminlash, rejalashtirilgan, natijalari kafolatlangan, loyihalashtirilgan amaliy ishlarni talab darajasida mahorat bilan boshqarish nazarda tutiladi.

Taʼlim-tarbiya jarayonida “interfaol metodlar” nomi bilan kirib kelayotgan metodlardan “aqliy hujum”ning maqsadi ham oʻquvchilar faolligini oshirish, ularni mustaqil amaliy ishga jalb etib, mustaqil mulohaza yuritishga undash, bir mavzu tevaragida turli xil fikrlarni toʻoʻlash va masalaga ijodiy yondashuvni taʼminlashdan iborat. Bu metod A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan.

Aqliy hujum – oʻquvchilar oldiga qoʻyilgan muammolarni bor bilim va imkoniyatlariga tayanib, faol hal etishlari uchun keng imkoniyat yaratuvchi metod:

a) oʻquvchi oldiga qoʻyilgan muammoga xilma-xil mulohazalar bilan yondashishga undaydi;

b) yangi-yangi fikrlar tugʻilishiga imkon beradi;

v) erkin fikr, ijodiy yondashuv natijasida oʻquvchilarning tasavvurlariga erk beriladi;

g) har bir oʻquvchi oʻz fikrlarini asoslashga urinadi;

d) har jihatdan asosli fikr toʻgʻri xulosaga olib kelganligi kuzatiladi va bunga ishonch hosil qilinadi.

e) kuchli gʻoyaga asos boʻlgan fikr chuqur bilimdan, nazariy farazdan tugʻiladi.

Endi “Alpomish” asaridan parchani “aqliy hujum” metodidan foydalanib oʻtishning namunasini havola qilamiz.

Asar matniga shu nuqtai nazardan yondashib oʻrganish rejalashtiriladi. Ayni oʻaytda, qahramon ruhiyatini yoritishda ruhiy tahlil usulidan yozuvchi qanday foydalanganligiga oʻquvchilar diqqatini qaratib, badiiy asar tili boʻyicha oʻzlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash koʻzda tutiladi. Demak, matnga

shu nazar bilan yondashib, savol-topshiriqlarni ham shu talqin talabida tuzish kerak.

O'qituvchining kirish so'zida "Alpomish" dostoni haqida umumiy ma'lumot beradi. Uning ijrochisi Fozil Yo'ldosh haqida, uning hayoti va ijodi haqida qisqa ma'lumotlar bayon qilinadi. Shundan so'ng asar mutoalasiga o'tiladi. Asarning janri haqidagi nazariy tushunchalarni va kompozitsiya unsurlari haqida so'raladi: "Nima sababdan dostonga "Alpomish" deb sarlavha qo'yilganligini izohlab bering. Bu savol o'quvchilarni mulohaza yuritishga undaydi, asar g'oyasi – epik tafakkur tarzini o'rganishga yo'llaydi.

Bunda shunday savol berilishi mumkin: Asardan ikki aka-ukaning noahilligi tufayli faqat bir xonadon emas, balki butun boshli bir elat, "o'n ming uyli qo'ng'iroq" boshiga tushgan qayg'uli holat tasvirlangan manzaralarni topib qayta o'qing va tahlil qiling. Boybo'ri va Boysarilar xonadonining noahilligiga sabab bo'lgan voqealarni izohlang.

Qahramon ruhiy holatini ochuvchi vositalarni asardan too'ing. Boysari ruhiyati yorqin tasvirlangan o'rinlarni qayta o'qing va izohlang.

Keyinroq esa mana bunday savollarni berish mumkin:

Qaldirg'ochning akasiga nisbatan qo'pol va keskin munosabatiga sabab nima?

Siz Qultoyga qanday baho berasiz? Uning xizmatkor bo'la turib Hakimbekka do'q-po'pisa qilishini qanday izohlash mumkin?

Dostonda otalar obrazi qanday ifodalangan? Ularga qanday baho berasiz?

Surxayil kamo'ir qanday shaxs? Uning ijobiy jihatlarini nimalarda ko'rasiz? U o'z yaxshi niyatini amalga oshirishda tanlagan usullari bilan to'g'ri ish qildimi, uning qilgan ishini oqlaysizmi?

Barchin tanlagan yo'l sizga qanday ta'sir qildi?

Kashal alplari qanday yigitlar? Ularga qanday baho berasiz?

Bu kabi yo'naltiruvchi savollar shunday o'rtaga tashlanishi kerakki, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida asarni tahlil qilayotganliklarini zinhor sezmasinlar. Ular go'yo o'zlari barcha savollarda aks etgan muammolarni mustaqil hal etayotganday ruhlanib, bahslashib, qiziqib fikr aytsinlar. O'qituvchi esa

fikrlarni fikrga “ulab”, rivojlantirib, yangi g‘oyalar sari o‘quvchilarni ilhomlantirib turishi kerak.

Bugungi ta’lim jarayonida keng qo‘llanilayotgan interfaol usullardan yana biri “6x6x6” taniqli metodist olim Ye.A.Aleksandrov tomonidan ishlab chiqilgan va G.Ya.Bush tomonidan takomillashtirilgan. Bu metod bilan ishlashda o‘quvchilar oltita-oltitadan guruhlariga bo‘linadi, har bir guruhga muayyan nom beriladi. Mavzu e’lon qilinib, ma’lum vaqt belgilanadi, so‘ng o‘quvchilar mavzu doirasida taqdim etilgan savollar bo‘yicha bahslashadilar. Vaqt tugagach, yangi guruhlar munozarani davom ettiradilar, avvalgi guruhlardan o‘z savoliga asosli mulohaza bildirib, bahsda faol qatnashgan bittadan o‘quvchigina keyingi guruhda bahsni davom qildirishi mumkin. Yangi tuzilgan guruhlar ochiq qolgan yoki yetarli javob qaytarilmagan muammoli savollar yuzasidan munozarani davom ettiradilar, avvalgi guruh bildirgan xulosalarga o‘z munosabatlarini bildiradilar, bu fikrlarga baho ham beradilar. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g‘oyalariga o‘qituvchi e’tibor berib boradi, munozarada faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirib boriladi. Tahlilga yo‘llovchi savollar bilan birga, o‘quvchilarga matndan qahramon obrazi ustida ish olib borishga, uning ruhiyati va xarakterini tahlil etishga yordam beruvchi ko‘chirmalardan ham kartochkalar orqali tarqatish mumkin.

Bunday ko‘chirmalar (matn ustida ishlash) vositasida o‘quvchi egallagan nazariy bilimlarga tayanib fikrlashga jalb qilinadi. Bilimlarni amaliy faoliyatda mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish imkoni yaratiladi. Natijada, yangi bilim va nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishda yangi imkoniyatlar vujudga keladi. Yangi adabiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bo‘lsa, o‘quvchining qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyojiga ko‘ra amalga oshadi. Ta’limda axborot beruvchi metodlar belgilab berilgan yo‘nalishdagina ish ko‘radigan, o‘zi mustaqil izlanib yangi bilimlarni o‘zlashtira olmaydigan, passiv shaxsiyatni shakllantiradi. Shu bois, yangilangan pedagogik tafakkur ta’limda o‘quvchilarni faollikka undovchi metodlarni keng yoyishni taqazo etadi. Zotan, adabiy ta’lim nazariy bilimlar, tushuncha va ma’lumotlarni o‘quvchi ongida tugal shakllantirishni hech qachon bosh muddao

deb belgilamaydi, balki o'quvchilarning ijodiy tafakkur imkoniyatlarini ochishni, bilishga bo'lgan tabiiy ehtiyojni yangi-yangi bilimlar va nazariy tushunchalarni o'zlashtirish jarayonining zaruriy shartiga aylantirishni ko'zda tutadi.

Xullas, o'quvchini muntazam faollikka undash, asar qahramonlari timsolida jonli insonni tasavvur etishga, obraz kechinmalariga hamdardlik orqali o'zga insonlarni his qilib, anglashga ko'maklashish, shu orqali o'quvchining o'zligini anglashiga da'vat qilib borish hamisha adabiy ta'limning asosiy vazifasi bo'lib qoladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ulardan ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak o'edagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi¹³.

«**Ta'lim texnologiyasi**» tushunchasi «ta'lim metodikasi» tushunchasiga nisbatan kengdir. **Ta'lim metodi** - o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, **ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.**

Ta'lim texnologiyasi - ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi.

Ta'lim texnologiyasining umumiy maqsadi quyidagi darajalar asosida oydinlashadi:

1) ta'lim muassasasining maqsadi hamda o'qituvchining metodik faoliyati mazmunini aniqlashtirish;

¹³ Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent, "Fan", 2006, 149-bet.

2) o‘quv predmeti (bo‘lim)ning maqsadi, o‘qituvchining metodik faoliyati mazmunini aniqlashtirish;

3) ushbu modul (o‘quv unsuri)ning maqsadi va uning o‘quvchilar faoliyatidagi alohida modulga ham, uning tashxis qilinadigan oxirgi natijalariga ham o‘tkaziladi.

O‘qituvchining samarali faoliyat ko‘rsatishga undovchi **darsning metodik ishlanmasidan farqli o‘laroq, ta’lim texnologiyasi o‘quvchilar faoliyatiga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib**, u o‘quvchilarning shaxsiy hamda o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. **Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi - o‘quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat.**

Mazkur badda ta’lim texnologiyasi va uning mohiyati borasida so‘z yuritimiz. «Ta’lim texnologiyasi» xususida yaratilgan adabiyotlarda ushbu tushunchaga berilgan ta’riflarga asoslangan holda biz ushbu tushunchani quyidagicha sharhlashga jur’at etdik: **pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.**

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari tanlagan texnologiyalarga bog‘liq. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublarning bir necha turlari keng tarqalgan bo‘lib ta’lim jarayonida qo‘llanilib kelinmoqda.

mavzu	“Alpomish” dostoni
1.1.Ta’lim berish texnologiyasining modeli	
Mashg‘ulot vaqti - 80 daqiqa	O‘quvchilar soni – 25-30ta
Mashg‘ulot shakli	Suhbat, debat, savol-javob
Ma’ruza rejasi:	1.”Alpomish” qahramonlik dostoni. 2.Dostonning syujeti va komo‘ozitsiyasi. 3. Dostonning obrazlar tizimi 4. Dostonning badiiy xususiyatlari
Ma’ruza mashg‘ulotining ta’limiy maqsadi:	Doston haqida umumiy tasavvur uyg‘otish
Ma’ruza mashg‘ulotning tarbiyaviy	Dostondagi epik olam tasviri vositasida

maqsadi:	o'quvchilardagi yuksak mag'naviy fazilatlarini rivojlantirish
Ma'ruza mashg'ulotining rivojlantiruvchi maqsadi:	O'quvchilarning folklor va uning ijtimoiy ahamiyati haqidagi tushunchalarini kengaytirish.
Pedagogik vazifalar: 1. O'quv dasturida ko'zda tutilgan maqsadni ochib berish. 2. O'tiladigan mavzu maqsadi va vazifalari. Mavzu doirasida tushuncha berish. 3. Tag'lim bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish	O'quv faoliyati natijalari: 1. O'tilgan mavzularni sharhlab berish 2."Alpomish" dostoniga oid asosiy badiiy-estetik qadriyatlar mohiyatini anglash. 3. "Alpomish"dostoni haqida ma'lumotga ega bo'lish 4.Mavzuning mohiyati, maqsadini anglab yetish.
Mavzuni o'zlashtirish uchun zaruriy bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:	1. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.–T.: O'zbekiston, 2009. 2.Yo'ldoshev Q.Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: "O'qituvchi" 1996. 3.Yo'ldoshev Q. "Alpomish" talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat ma'naviyati haqida ayrim fikrlar - T.: Ma'naviyat, 2002. – 165 b. 4.Komilova T. Obidova S. «Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati». –Toshkent: 2000. 5.Madayev O., Sobirova B. Xalq og'zaki ijodi (akademik litseylar uchun). Toshkent, 2003. 6.Mirqosimova M. "O'quvchilarni adabiy – estetik tahlilga o'rgatish". Toshkent: "O'qituvchi" 1994. 7.Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar.1997. 8.Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent: "Tamaddun", 2010.
Ta'lim berish usullari	Suhbat, savol-javob
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, individual
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor, tarqatmalar, slaydlar
Ta'lim berish sharoiti	O'TV blan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob

1.2. laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi


Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulot ishlanmasini tayyorlash	Tinglaydi, yozib oladi.
	2. Amaliy mashg'ulot ishlanmasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash	Ko'rib yozib oladi
	3. O'quvchilar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish	Tanishadilar
	4. O'quv fanini o'rganishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatini tuzish	Ko'chirib oladilar

1. Mavzuga kirish (15daqiq)	1.1. Mavzu doskaga yoziladi. Slaydlar va adabiyotlar ro'yhatini berib, ularga qisqacha ta'rif beriladi.	Tinglaydilar
	1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar
	1.3. O'quvchilar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi.	Tinglaydilar
	1.4. O'quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beriladi.	O'quvchilar savollarga javob beradilar.
Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1 Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy jihatlar tushuntirib beriladi. (4 ilova)	Tinglaydilar, yozadilar.
	2.2. Mavzuning ta'lim bosqichlaridagi ahamiyati	Yozib oladilar.
	2.3. O'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan amaliy ishlar: - doston matni bilan tanishish; - dostondagi asosiy voqealar mohiyati va mantiqini aniqlash; - asarning obrazlar tizimi haqida tasavvurga ega bo'lish.	Tinglaydilar, yozadilar, izohlab beradilar.
	2.4 O'quvchilar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi (5- ilova) 1. "Alpomish" qanday doston? 2. Dostondagi alplarning bir-biridan farqi bormi? 3. Dostondagi qanday ayol obrazlari bor? Ularning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari haqida nimalar deya olasiz? Alpomish rivojlanib boruvchi obrazdir. Buni siz qanday izohlaysiz?	O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar.
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beriladi, yakunlovchi xulosa chiqariladi.	Savollar beradilar
	3.2 Mustaqil ishlash uchun topshiriq beriladi.	Vazifani yozib oladilar, bajaradilar

Tayanch so'zlar: "Alpomish", yetakchi qahramonlar, doston, obrazlar tizimi, ayollar obrazlari, alo'lar, tasvir vositalari, mubolag'a, badiiy-estetik tasvir

Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	1-guruh	2-guruh	3-guruh
Maksimal ball- 2			
- savol to'liq yoritib berildi(0.5 ball)			
- javoblar asoslab berildi(0.5 ball)			
- guruh ishtirokchilarining faolligi (0.5 ball)			
-berilgan savollarga javob berdi (0.3 ball)			
- reglamentga rioya qildi(0.2 ball)			
Jami: (2ball)			

“Klaster” metodi asosida fikrlaringizni bayon eting



FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv arayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	“Alpomish” dostonining asosiy xususiyatlari haqida fikrlaringiz
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	


2-guruh

Savol	Alpomish obrazi haqida fikrlaringiz
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

O'quvchilarni faollashtirish uchun savollar:

1. Qaldirg'ochning akasiga nisbatan qo'pol va keskin munosabatiga sabab nima?
2. Siz Qultoyga qanday baho berasiz? Uning xizmatkor bo'la turib Hakimbekka do'q-po'pisa qilishini qanday izohlash mumkin?
3. Dostonda otalar obrazi qanday ifodalangan? Ularga qanday baho berasiz?
4. Surxayil kampir qanday shaxs? Uning ijobiy jihatlarini nimalarda ko'rasiz? U o'z yaxshi niyatini amalga oshirishda tanlagan usullari bilan to'g'ri ish qildimi, uning qilgan ishini oqlaysizmi?
5. Barchin tanlagan yo'l sizga qanday ta'sir qildi?
6. Dostondan olgan taassurotingiz?

Rag‘batlantirish. Darsda faol ishtirok etgan va etmagan o‘quvchilar rangli kartochkalar bilan baholanadi.



Zamon bilan hamnafas har qanday o‘qituvchi o‘z oldiga yangi-yangi g‘oyalar va metodlarni ta’limda qo‘llashni maqsad qilib qo‘yadi. Ayniqsa, texnika asrida bu mas’uliyat yanada ortmoqda.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida zamonaviy p‘edagogik texnologiyalarni unumli va o‘z o‘rnida qo‘llash orqali ta’lim tizimidagi natijalar anchagina samarali bo‘ladi. Bunday ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, vaqtning unumdorligini oshishi, ijobiy natijalar berishi, qolaversa, bir tomonlama dars o‘tishdan cheklanishni taqozo etadi. O‘qituvchi o‘z ishida axborot texnologiyalari talabalarni mustaqil fikrlashga, dars davomida zerikmasdan faol ishtirok etishiga zamin yaratishini ta’kidlaydi. Slayd, animatsiya, multemidiya, ovozli roliklar, interfaol o‘yinlardan o‘z vaqtida, dars davomida o‘rinli foydalanilsa kutilgan maqsadga erishiladi. Bunda o‘qituvchi tomonidan ijodkorlik, tashabbuskorlik, bilimdonlik talab etiladi.

III bob. BMI ning amaliyotga tatbiqi va tajriba-sinov ishlari natijalari

3.1. “Alpomish” mavzusi uchun dars ishlanmasi.

Amaldagi Davlat ta’lim standartlari talabi bo’yicha hozirgi darsliklarda maktablarimizning 5 - 6 sinflarida xalq og‘zaki ijodi kengroq o‘qitiladi. Darslikda maqol, hikoyat, ertak, afsona, topishmoq, latifa va askiyalar haqida keng ma’lumot beriladi. Undan maqsad ta’limning dastlabki bosqichlaridanoq, o‘zbek xalqining boy, madaniy merosi – milliy qadriyatlari sifatida folklorning ijtimoiy-g‘oyaviy mazmuni, janr xususiyatlari va shakllarini, urf-odat va marosimlari, ularni ifodalash, ijro etish jarayonlarni o‘quvchi ongi - shuuriga singdirish, ularni ezozlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ikkinchi bosqichda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan faqat dostonlar o‘qitish nazarda tutilgan.

Dasturga 7 – 9 sinflarda, “Quntug‘mish”, “Ravshan”, “Alpomish” dostonlari kiritilgan.

Ilgari xalq og‘zaki ijodi haqida ma’lumot berishda ko‘pincha ishni xalq dostonlaridan boshlash an’ana tusiga kirgan edi. Haqiqatdan ham doston o‘zbek xalq xazinasining bebaho durdonasi. Albatta, ilk dars mashg‘ulotlarini dostonlardan boshlash maroqli. Ammo kichik yoshdagi o‘quvchilarga yirik hajmdagi dostonlar bilan to‘liq tanishish biroz murakkablik qilar edi. Shuning uchun ham xozirgi kunda esa dostonlar haqida ikkinchi bosqichda ma’lumot beriladi.

Har bir doston o‘qitilishiga kamida uch soatdan besh soatgacha vaqt ajratilgan. Yirik hajmdagi “Alpomish” dostonini o‘rganish uchun 9 sinf adabiyot darsida 5 soat ajratilgan.

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Fan: Xalq og‘zaki poetik ijodi

DARSNING SHIORI: Har kuni to‘ldirib borilmaydigan bilim har kuni o‘lib boradi...

DARSNING MAQSADI:

Talimiy maqsad: O'zbek xalq dostonlari, dostonchilik maktablari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida o'quvchilarni chuqur bilimga ega bo'lishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni o'zbek xalq dostonlari, dostonchilik maktablari orqali vatanimizga bo'lgan cheksiz muhabbat tuyg'ularini oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda mantiqiy fikrlash tafakkurni o'stirish, o'qigan dostonlar yuzasidan mustaqil fikrlar bera olish. O'tilgan mavzu yuzasidan mustaqil ishlash, malaka ko'nikmalarni shakllantirish, xulosalar yuritish va takliflar kirita olishni rivojlantirish.

Darsning jihozi: o'zbek xalq dostonlari, 'lakat, dostonlarning tasnifi tushirilgan 'lakat, electron vositalar: slayd, dostonchilik an'analari tushirilgan video lavha, darslik.

DARSNING REJASI:

1. Doston atamasiga izoh
2. Doston kuylash tartibi
3. Baxshi tayyorlash an'anasi
4. Dostonchilik maktablari va ularning taniqli vakillari re'ertuariga xos muhim belgilari.

TASHKILY QISM

- Salomlashish, davomat
- Xonaning tozaligi
- O'quvchilarning diqqati darsga qaratib olinadi
- O'quvchilardan sana so'raladi

O'quvchilarni raqamlash asosida guruhlarga bo'lib olamiz va guruhlash asosida birlashgan 'artalarga o'tqizamiz.

O'TGAN MAVZUNI TAKRORLASH

- Biz o'tgan darsda qanday mavzuni o'tgan edik?
- Biz o'tgan darsda "Alpomish" dostonini o'tgan edik.

O'tgan mavzuni takrorlashda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Klasster metodi


2.To‘rtinchisi ortiqcha metodi

3.Baliq sekleti metodi


4.To‘qirlik metodi

O‘quvchilarni baholash maqsadida guruhlarga oldindan tayyorlangan blets o‘yinlar tarqatiladi:

1.Klasster



2.BALIQ SEKLETI



3.TO‘RTINCHISI ORTIQCHA METODI

1. Ravshan Zulxumor

2. Alpomish Barchinoy

3. Ultontoz Boysari

4. Qaldirg'och Qorajon

Mazkur o'yin texnologiyalarini o'quvchilar quyidagicha bajaradi: 1. Klasster Alpomish dostoniga oid ma'lumotlar bilan to'ldiriladi (to'liq va ko'' ma'lumot yozgan guruh a'lo baholanadi)

2. Bunda baliqning har bir qiltanog'iga bittadan Alpomish dostonidagi qahramon va uning ostiga o'sha qahramonning qisqacha ta'rifi yoziladi

TO'RTINCHISI ORTIQCHA METODI

3. Bu metodda guruhlarga kartochka tarqatiladi. Kartochkaning uch qatorida bitta doston qahramonlari va bitta qaysidir qatorida boshqa doston qahramonlari keltiriladi. Guruh a'zolari qaysi doston qahrasmonlari ortiqcha ekanligini aniqlashi lozim.

YANGI MAVZU BAYONI:


“Doston” atamasi qiziq voqealarni hikoya qilish degan ma'noni bildiradi. Dostonni kuylovchilr baxshilar deb ataladi. Baxshilar kechalari uylarida baxshilik kechalarini o'tkazishadi. Bazan bir dostonni kuylash soat, kun va hattoki oylab cho'zilishi mumkin. O'zbekistonda baxshichilik rivojlangan hududlarga buxoro Samarqand Qaraqalpog'iston Surxandaryo Qashqadaryo va boshqalar kiradi. Dostonchilik maktablari 3ta ularga: Xorazim, Samarqand, Namangan(Farg'ona) dostonchilik maktablari kiradi. Xorazim dostonchilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi: ochiq ovozda va jo'r bo'lib kuylanishi, hajmi nisbatan kichik, e'ik 'archalardan iborat. Samarqand dostonhilik maktablarida as'san katta hajmdagi lirik 'archadan iborat dostonlar bo'g'iz ovozda kuylanadi. Namangan dostonchilik maktablarida asosan katta hajmdagi e'ik 'archalardan iborat dostonlar kuylanadi. Samarqand dostonchilik maktablariga Bulung'ur, Sherobod, Xorazm, Qo'rg'on, Turkmaniston, Nar'ay dostonchilik maktablari kiradi. Ushbu maktablar va ularning eng taniqli ko'zga ko'ringan vakillari haqida ma'lumot beriladi. Maktab vakillari yuksak mahorat bilan kuylagan dostonlar slayd orqali ko'rsatib o'tiladi. Baxshilarning rasmlari ko'rsatilib ularning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar aytib

yozdiriladi. Nazariy ma'lumot bayon qilingandan so'ng o'quvchilarga Olloberdi baxshining Alpomish dostonidan kuylagan 'archasi vedio roligi namoyish etiladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash:


Bolalardan mavzu yuzasidan tushunmagan savollari so'raladi.

So'ng mavzuni mustahkamlash uchun Zinama-zina metodi o'tkaziladi.



O'quvchilar pog'onama pog'ona yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlarini yozadilar. Shu orqali mavzuni tushunganliklarini bilib olamiz.

VENN DIAGRAMASI



O'uvchilarga Venn diagrammasi chizilgan qog'zlar tarqatiladi. Bunda ham guruhlar bilan ishlash mumkin. Har bir guruhga beshtadan diagramma chizilgan qag'oz tarqatiladi. Ushbu usulning sharti quyidagicha; Diagrammaning birinchi tomoniga malum bir asarning o'ziga xos tarafi yoziladi, ikkinchi tomoniga esa keyingi malum bir asarning birinchi asarga o'xshamagan, unga qarama-qarshi bo'lgan o'ziga xos tarafi yoziladi. O'rtasiga esa ikkala asarning o'xshash jihatlari, qarama-qarshi bo'lmagan fikrlar yoziladi.

Masalan, "Alpomish", "Ravshan" dostonlarini qiyoslash.

Talabalarni faollashtirish uchun savollar:

1. Xalq dostonlari boshqa janrlardan qanday farq qiladi?
2. Dostonchilik an'analari haqida gapiring.
3. Dostonlar tasnifi haqida nimalar bilasiz?
4. Xalq dostonlari ijtimoiy hayotni tasvirlashda qanday ahamiyatga ega?
5. Doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun uning qanday tarkibiy qismlari o'lishi kerak?
6. Doston kuylagan qaysi baxshilarni bilasiz?

Ushbu savollarga o'quvchilar hikoya doirasida olgan bilimlari va nutqiy faoliyatlari orqali javob beriladi. Barcha talablarni qoniqtirgan va qoniqtirilmaganliklariga qarab chuqur tahlil qilinadi.

«Alpomish» dostoni

«Ravshan» dostoni

BIR –BIRIGA O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARINI TOPING

Darsni yakunlash:

O‘quvchilardan yana bir bor tushunmagan savollari so‘raladi, so‘ng uyga vazifa qilib Dostonchilik maktablari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘qib kelish aytiladi. Guruhni yig‘gan rag‘bat kartochkalari hisoblanadi va guruh a‘zolari faolligiga qarab baholanadi.

3.2. “Ravshan” dostonini o‘rganish uchun tavsiya va tahlillar

Adabiyot darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda ular bilan asar haqida suhbatlashish, ularni asar matnidan javob izlashga majbur etadigan savollar berish, bu savollar yordamida o‘quvchini asar mohiyatiga olib kirish, undagi tasvir haqida ongli ravishda, to‘la ishonch bilan ma‘lum xulosalarga kelishga ko‘maklashish juda muhim. Badiiy asar tahlili jarayonida asarning mazmun va shakli orasidagi aloqani nazardan qochirmaslik, unda aks etgan shaxs bilan jamiyat orasidagi munosabatga e‘tibor qaratish darsning samaradorligini ta‘minlaydi.

Badiiy asarni to‘laqonli o‘zlashtirish tuyish va fikrlashning birligi orqali amalga oshadi. O‘zlashtirish uchun esa fikrlash lozim. Har qanday asar zamirida uning tahliliga asos bo‘ladigan jihatlar ifodalangan bo‘ladi. Hamma gap tahlil jarayonida hayotiy va badiiy mantiq asosida mana shu jihatni ilg‘ay olishdadir. Masalan, 7-sinf “Adabiyot”¹⁴ darsligida “Ravshan” dostonidan parcha berilgan. Darslikda “O‘zbek xalqining go‘zal qiz to‘g‘risidagi tasavvurlariga o‘z munosabatingizni bildiring” degan topshiriq bor. O‘quvchi bu topshiriqni bajarish uchun doston matniga qayta-qayta murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Darslikda berilgan parchada (22-bet) Zulxumorning go‘zalligi ta‘rifi: *“Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to‘lgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehni qo‘yib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, ko‘zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og‘izlari o‘ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig‘ay uchadigan qushday,*

¹⁴ Yo‘ldoshev Q, B.Qosimov, Qodirov V, Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik- majmua. Toshkent, 2013.

muhrlangan qog'ozday yalt-yult etib o'tiribdi. Zulxumoroyning bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh — o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suvga botirgan, bir yog'ini kumush suvga botirgan, tong shamolida qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab o'tiri...” tarzida keltirilgan. O'quvchi Zulxumorning ta'rifini o'z so'zlari bilan ifodalash uchun matndan mana shu bo'lakni qayta o'qishi va o'zlashtirishi, uning mohiyatiga kirishi kerak. Asar ustida ishlashning keyingi bosqichlarida mana shu qism va unsurlarning o'zaro aloqasi chuqurroq anglab etiladi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosida bilim olishlarini ta'minlashda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot metodikasi ilmi har bir adabiyot darsi oldiga tarbiyaviy, ta'limiy, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi singari maqsadlar qo'yilishi lozimligini ko'zda tutadi. Bu xil maqsadlar to'g'ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. Afsuski, dars jarayonida o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini ta'minlash emas, balki o'z faoliyatini tashkillashtirish turadi.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars shaklini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quv materialining mazmuni, hajmi, darsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va qiyinlik darajasini belgilash; materialning o'quvchi hayotiy tajribasi, ilgari o'zlashtirgan bilimi va aqliy-amaliy faoliyati bilan aloqasini o'rnatish; o'quvchining mustaqil ishlari va o'quv topshiriqlari tizimini aniqlash; darsning jihozlarini, axborotlarning asosiy va qo'shimcha manbalarini o'rnatish ko'zda tutiladi.

Adabiyot darslari sinfdagi o'quvchilar bilan yalpi ishlash, ayni vaqtda har bir bolaning mustaqil faoliyatini birgalikda qo'shib olib borish ko'zda tutilgan holda, o'qitishning jamoa, guruh yoki individual shakllarida tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, adabiyot darslarining maqsad va vazifalariga, mazmun va metodlariga mos keladigan tizim ham zarur.

Masalan, 7-sinf “Adabiyot” darsligida “Xalq og'zaki ijodidan” rukni ostida “Ravshan” dostonidan parcha berilgan. Darslikda “O'zbek xalqining go'zal qiz

to'g'risidagi tasavvurlariga o'z munosabatingizni bildiring" degan topshiriq bor. O'quvchi asar tahlili mobaynida bu topshiriqqa javob berish uchun doston matniga qayta-qayta murojaat qilishga majbur bo'ladi. Darslikda berilgan parchada (22-bet) Zulxumorning go'zalligi ta'riflari: "Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehni qo'yib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, ko'zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig'ay uchadigan qushday, muhrlangan qog'ozday yalt-yult etib o'tiribdi. Zulxumoroyning bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh — o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suvga botirgan, bir yog'ini kumush suvga botirgan, tong shamolida qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab o'tiri" tarzida keltirilgan. O'quvchi Zulxumorning ta'rifini o'z so'zlari bilan ifodalash uchun matndan mana shu bo'lakni qayta o'qishi va o'zlashtirishi, har bir ta'rifni tasavvur qilishi va uning mohiyatiga kirishi kerak. Asar ustida ishlashning keyingi bosqichlarida mana shu qism va unsurlarning o'zaro aloqasi chuqurroq anglab yetiladi.

O'quvchi shaxsida kuzatuvchanlikning rivojlanishi badiiy asardagi xarakterli detallarni ajrata bilish, tuyg'ularni anglash va badiiy peyzajni ko'ra olishga ham yordam beradi. peyzajni anglash esa, o'z navbatida, go'zallikni ko'rish, kuzatish va his qilishga o'rgatadi. Eng muhimi, bu mustaqil tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchilarning bilim olish jarayonidagi mustaqil fikrlashini rivojlantirish har bir o'quvchining individual imkoniyatlari va tayyorlik darajasi to'la hisobga olingandagina muvaffaqiyatli amalga oshishi mumkin. Tarbiyalanuvchilarning bu jarayondagi faolligini oshirish uchun ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan, o'zaro aloqadorlikka ega bo'lib, bir-birini to'ldirib, asta-sekin murakkablashib boradigan, har xil mustaqil ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ishlar, avvalo, o'quv mavzulari doirasida, dastur bo'limlarida hamda butun maktab ta'limi jarayonida bo'lishi lozim. O'quvchini ilm olishga undaydigan eng samarali yo'l — o'qituvchining ishonchi. O'quvchi qalbida o'qishga intiltiruvchi ichki ehtiyoj hissini shakllantirish uchun adabiyot darslarida zarur sharoit, imkoniyat vujudga

keltirilmog'i lozim. Bu sharoitning yuzaga kelishi va uning o'quvchi tomonidan anglab olinishi bola shaxsining rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. O'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish o'quvchiga tayyor bilimlarni berish emas, balki uni ixtiyoriy motivlar, maqsadlar hamda avvalgi tajribalar asosida faoliyat ko'rsatadigan, aqliy zo'riqishga olib boradigan holatga solishdan iboratdir. Har bir o'quvchini boriday qabul qila oladigan tajribali o'qituvchi har bitta bolaning ta'lim motivatsiyasini xayolida tutadi. Ba'zan amaliyotda o'quv ishlarining samaradorligi, o'quvchilarning o'zlashtirishi motivatsiyasiz baholanib, bolalarning bilimiga ularning bilimga bo'lgan ehtiyojidan ajratilgan holda qaraladi. Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosida bilim olishlarini ta'minlash va bilim olishga motivatsiya uyg'otishda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot metodikasi ilmi har bir adabiyot darsi oldiga tarbiyaviy, ta'limiy, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi singari maqsadlar qo'yilishi lozimligini ko'zda tutadi. Bu xil maqsadlar to'g'ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. Afsuski, dars jarayonida o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini ta'minlash emas, balki o'z faoliyatini tashkillashtirish turadi. O'qituvchi, avvalo, zamonaviy adabiyot darslarini to'g'ri, mustaqil tafakkur va faoliyatga asoslangan holda tashkil qilishning shartlari nimadan iborat ekanini aniqlab olish zarur. Bunday darslarni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik va psixologik-didaktik shartlari bor. Zamonaviy darslarga qo'yilgan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar quyidagilar: ijodiy ishlay

biladigan va o'z kasbi sirlarini yaxshi egallagan, tegishli didaktik va metodik tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchi; izlanuvchan, inoq o'quvchilar jamoasi; yaxshi darslik, ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari hamda yaxshi jihozlangan sinf xonalari; yoqimli psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatning samimiy, o'zaro hurmatga, pedagogik hamkorlikka asoslanganligi kabilardan iborat.

O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODI

“RAVSHAN”







Ravshanga otasi Hasanxonning nasihati.

Paydo bo`lding ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzil-xonadan.
Avval aytgan nasihatim, Ravshanjon,
Kechsang yomon bo`lar ota-onadan!

Eshitib ol, otang sho`rning arzini,
Elida sarg`aytding gulday tarzini.
Bir qiz uchun unutmagin bizlarni,
Unutma otang ham onang qarzini!


O`zingdan pastlarman har yo`lga ketma!
Bolam, aytgan nasihatim unutma!
Oldingdan kim chiqsa, besalom o`tma!
Bir g`aribni ko`rsang, zinhor og`ritma!

Qo`lingdan kelganicha chiqar chiqar
yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
Nasihatim yod qilib ol, yolg`izim,
Yolg`iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

"Ravshan" dostonidagi obrazlar

Bosh obrazlar- Hasanxon, Ravshan, Zulxumor...

Epizodik obrazlar- Kampir ena, aka-uka kallar, Oqqiz, Maston ona...



Xulosa

Ajdodlarimiz xalq og‘zaki ijodi asarlarida har bir yosh avlodni ilm olishga, ilimli bo‘lishga chaqirib, boshqalarga har tomonlama namuna bo‘la oladigan ma’naviy yetuk, hunarli, kasb-korli farzandlar bo‘lishini ta’kidlaganlar.

«Alpomish» dostonidagi voqealar hayotiyli va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylik, samimiyat, to‘g‘rilik, hamiyatlilik, do‘stga sodiqlik, vatano‘arvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo‘lgan o‘zbek milliy ruhiyati yaqqol ko‘rinadi.

Alpomish va Barchinning, ularni qurshab turgan el-yurtning o‘zaro munosabatlari, xatti-harakatlari, tutumlari, qarashlari juda katta o‘rnakdir. Ammo ularni o‘z o‘rni bilan hozirgi yoshlar ongi va qalbiga singdirish, shu yo‘l orqali yuksak ma’naviyatli inson tarbiyasiga daxldor ma’naviy-axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirib olishiga imkoniyat yaratish adabiy mashg‘ulotlarning, faqat adabiyot emas, balki barcha o‘quv predmetlarini o‘rganish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biridir.

Shu o‘rinda yana bir ta’kidni eslatmoqchimiz: komil insonni tarbiyalashda ota-onani ibrat qilib ko‘rsatish – milliy udum va qadriyat ekanligi, umuman, oila ma’naviyati va sog‘lom turmush tarzining xalq dostonlaridagi talqinlarini maktab o‘quvchilariga alohida o‘rgatish; bu haqdagi kuzatishlarni ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

«Ravshan» dostoni ham e’tiqod yo‘lida sobit tura oladigan imonli kishilarni madh etuvchi, ezgulik, mardlik va botirlikni ulug‘lovchi, zulm-zo‘ravonlik, adolatsizlikni qoralovchi mazmuni o‘zida aks ettirgan asardir. Dostoning yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan qahramonlari Ravshan va Hasanxon pok qalbi, adolatparvar, hamisha zulmga, nohaqlikka qarshi kurashgan, jabrdiydalarga yordam qo‘lini cho‘zgan mard kishilardir.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda dostonlarni o‘rganish, tahlil qilish, bunda ta’limning ilg‘og metod va texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan fikr yuritdik. Dars ishlanmalar va slaydlar yaratdik. Ularni malakaviy pedagogik amaliyot o‘tagan Toshkent shahridagi Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi filologiya

fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi "Adabiyot" fanidan o'tkazilgan darslarda sinovdan o'tkazdik. Auditoriyada olgan nazariy bilimlarimizni, interfaol usullarni amaliyotga tatbiq etishga harakat qildik. Bunda "Klaster", "FSMU", "Insert", "Venn diagrammasi" kabi texnologiyalardan foydalandik. Bu texnologiyalar xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishda, mavzunini o'quvchilarga yetkazishda, tahlil qilishda ulardan o'rinli foydalanish zarur va muhim ekanligini ko'rsatdi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish, xususan, "Alpomish" dostonini o'rganish bizni vatanni sevishga, sadoqatli bo'lishga chaqiradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek: «Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimiz bag'rikenglik, matonat, oliyjanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan. Shu bois Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamizni qo'riqlashga, do'sti yorimizni, or-nomusimizni otabobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi»¹⁵.

¹⁵ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, «Ma'naviyat», 2008. 33-bet

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi // "Xalq so'zi" // 2016- yil 8 -dekabr
2. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
4. Каримов. И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент: Шарқ, 1997.
5. Каримов И. А.Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008
6. Каримов И.А.Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. – Т.: Ўзбекистон, 2001. 9-жилд.
7. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият.-Т.: Ўзбекистон, 1995.
8. Каримов И.А. Адабиётга эътибор -маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
9. Boliyev M. Yangi innovatsion texnologiyalar – davr talabi //Ma'rifat //26.10.02.2007.
10. Jumanazarova D. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va xalq dostonlari. T.: Fan, 2008.
11. Зуннунов А. “Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерklar” Тошкент: “Ўқитувчи” 1983.
12. Зуннунов А. “Бадий асар таҳлили методикаси” Тошкент: “Ўқитувчи” 1983.
13. Зуннунов А., Н.Хотамов., Ж.Эсонов., А.Иброҳимов., “Адабиёт ўқитиш методикаси” Тошкент: “Ўқитувчи” 1992.
14. Йўлдошев Қ., Мадаев О., Абдураззоқов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент: “Ўқитувчи” 1994.
15. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Тошкент: “Ўқитувчи” 1996.

16. Yoʻldoshev Q. “Alpomish” talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat maʼnaviyati haqida ayrim fikrlar. - T.: Maʼnaviyat, 2002.
17. Yoʻldoshev Q, B.Qosimov, Qodirov V, Yoʻldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik- majmua.Toshkent, 2013.
18. Yoʻldoshev Q, Qodirov V, Yoʻldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik- majmua.Toshkent, 2010.
19. Komilova T. Obidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. –Toshkent: 2000.
17. Madayev O., Sobirova B. Xalq ogʻzaki ijodi (akademik litseylar uchun). Toshkent, 2003.
18. Madayev O. Adabiyot darsliklari va milliy mafkura // Til va adabiyot taʼlimi// – T.: 1998, №2-son. B. 9-16.
19. Matjонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
20. Мирқосимова М.Ўқувчиларни адабий – эстетик таҳлилга ўргатиш. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
21. Муҳаммадиев Р. Ўзбек халқ ижоди. Аския. –Тошкент: Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.
22. Ниёзметова Р. Ўзбек тили дарсларида янги ўзбек адабиётини ўқитиш масалалари. Тошкент, 2010.
23. Ортиқов Н. Маънавият: миллий ва умуминсоний қадриятлар. – Тошкент, 1997.
24. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиш. – Т.: Тамаддун, 2010.
25. Толипов Ў. Ўқув – тарбия жараёнига педагогик технологияларни жорий этиш. – Т.: 2004.
26. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.
27. Тоʻхлиев В., Sarimsoqov B. Adabiyot (akademik litseylar uchun oʻquv dastur). – Т.: Oʻqituvchi, 2000.

28. To‘xliyev B. Adabiyot. Akademik litseylarning birinchi bosqichi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi.
29. To‘xliyev B., Niyozmetova R.va b. Til va adabiyot ta’limining zamonaviy texnologiyalari. – T.: Toshkent, 2011.
30. To‘xliev. B.O‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
31. Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.
32. Холбоева Г. Халқ оғзаки ижоди асарлари орқали ўқувчиларда миллий кадриятларни шакллантириш тамойиллари. – Т.: ЖДПИ, 2007.
33. Ўрта махсус, касб ҳунар таълимининг умумтаълим фанлари Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. – Т.: Шарқ, 2008.
34. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: муаммо ва ечимлар. Тошкент, 2009.
35. Ҳусанбоева Қ.. Адабиёт-маънавият мустақил фикр шакллантириш омили. Тошкент, 2009.

Internet ma’lumotlari:

www.literatura.uz
www.pedagog.uz
www.ziyonet.uz
www.o`zbek.adabiyoti.com